Buyruqlarni detalli to'plami yordamida formatlash jarayoni natijasida hujjatni har betidagi har bir simvol va grafik tasvirni aniq joylashuvi aniqlanadi.Ma'lumotlarni interpretatsiya jarayoni oxirida nazoratchi nuqtalar massivini tuzish uchun buyruqlarni bajaradi. Bu nuqtalar keyin qog'ozga ko'chiriladi. Bu muolaja rasterizatsiya (rasterization) deyilladi. Yaratilgan nuqtalar massivi betning buferiga joylashtiriladi va u yerda qog'ozga ko'chirilgancha bo'ladi. Rasterizatsiya natijaviyligi printyerda belgilangan xotira miqdoriga va bosmani joriy vazifasidagi kengaytmani ishlatishiga bog'liq. Monohram bosmada har bir nuqta-xotiraning bitta baytidir; Letter qog'oz hajmi uchun va 300dpi kengaytmasi uchun xotirani 1051875 bayti($\lceil \frac{81}{2} \cdot CH11 \rceil \cdot CH3002 \rceil / 8$)zarur, bu 1Mbaytiga ko'p. 600dpi razreshenyada xotirani zarur hajmi 4Mbaytga o'sadi.


Lazerli skanerlash.

Rasterizatsiyadan keyin betni tasviri xotirada saqlanadi, keyin esa jismonan bosma jarayonini bajaradigan bosma uskunaga uzatiladi. Bosmalovchi uskuna(*print engine*)-

printyerdagi tasvirni qog'ozga bevosita o'tkazuvchi uskunalarni aniqlash uchun umumiy atama. Ular quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: lazerli skanerlash tuguni (lazer tuguni), fotosezuvchi element, tonerli konteyne, tonerli tarqatish bloki, korotronlar, razryadli lampa, qotirish bloki va qog'ozni etkazish mexanizmi. Ko'pincha bu elementlar bitta modul ko'rinishida bajariladi.

Printer va nusxa ko'chirish mashinalari ma'lumotni olish va qayta ishlash uslubi bilan farq qiladi. Nusxa ko'chirish mashinasi hujjat obrazini shakllovchi o'rnatilgan skanyerdan iborat, printer esa kompyutyerdan bu ma'lumotlarni raqamli ko'rinishda qabul qiladi. Tasvirni rasterizatsiya qilingandan keyin, bosmalovchi uskunaga uzatiladi va hujjat ustudagi qolgan harakatlar printerdagi harakatlardan deyarli farqlanmaydi

4-rasmda bosma jarayoni ko'rsatilgan.




15-rasm. Lazerli printerni bosmalovchi uskuna sxemasi.

Toner tarqatish valigi magnitli qatlam bilan qoplangan va toner uchun "chytka" funksiyasini bajaradi. Toner (toner)-mahsus xususiyatga ega bo'lgan qora kukun, kukun orqali bosmalonuvchi betda tasvir paydo bo'ladi. Valik aylanganda toner zarrachalari konteynyerdan valikni magnitli yuziga taqliniyalanadi. Bu valik fotosezuvchi baraban yonida joylashgan. Baraban yuzi valik bilan to'qnashganda lazer yordamida neytrallashtirilgan qismlarga tortiladi. Shunday qilib, toner zarrachalari yordamida barabanda betlar rasmi shakllanadi. Baraban sekin aylanib qog'oz yuzi bilan ishqalanadi.

Printerda qog‘oz aylanayotgan baraban toshdan chiqadigan qilib qog‘ozni lotokdan olib bosma uskunasi uzatadigan mexanizmi mavjud. Qog‘ozni uzatish tezligi baraban aylanish tezligiga teng. Qog‘oz tagida yana bir (uzatuvchi korotron-transfer korotroneyladigan) korotron mavjud. U yordamida qog‘oz varag‘i zaryadlanadi va toner zarrachalari barabandan qog‘ozga tasvir hosil etib o‘tadi. Tonerni qog‘ozga tushgandan keyin baraban aylanishda davom etib razryadli lampaga tushadi, u yordamida baraban yuzi “tozalanadi”. Endi baraban to‘liq toza va keyingi bet uchun tayyor bo‘ladi. Bunday bosish jarayonida xatolar bilinmaydi. Bu bosmalovchi uskuna elementlarini juda yaqin joylashtiriladi.

Tonerni mustahkamlash

Fotosezuvchi barabandan qog‘ozga o‘tkazilgandan keyin qog‘oz o‘z harakatini davom etadi va yana bir korotron ustidan, razryadli korotroneyladigan o‘tadi. U zaryadni yechadi. Bu printerni boshqa qismlari bilan to‘qnashmasidan oldin qog‘ozni varag‘ini elektrli neytrallashtirish uchun zarur. Shunday qilib varag‘ida qandaydir tasvirga ega bo‘lgan toner sepilgan. Toner kukun ko‘rinishida bo‘ladi, va arzimagan ta’sir tasvirni buzadi. Qog‘ozda toner qotishi uchun 200°C gacha qizigan 2 valik orasidan yumalatib o‘tkaziladi. (6-rasm) Bunday isitish toneridagi zarrachalarini erishiga va qog‘ozga yopishib qolishiga olib keladi. Muhr jarayoni tugaganda qog‘oz printerdan chiqib keladi.



16-rasm. Tonerni mustahkamlash jarayoni.

Rangli lazer printerlari

Bosmani bunday turi uchun ham monohromli rusumlarda ishlatilgan texnologiya ishlatiladi, faqat bir rangli toner o‘rniga to‘rt rangli toner ishlatiladi. Rangli lazer printerlari bir vaqtda hamma rangni bosib chiqarmaydi, faqat bittasini bosadi. Bundan

faqat bitta fotosezuvchi baraban borligi ma'lum bo'ladi; bitta bet 4ta o'tishda pechat' qilinadi. Rangli lazerli printerda qog'oz uzatish mexanizmi juda murakkab. Monoxrom bosishda barabanni aylanish tezligi va qog'oz uzatish tezligi bir xilligini ta'minlash kerak, ranglida bosmalangan varaqni qaytarib bosish jarayonini 4 marta qaytarish kerak bo'ladi. Printerlarni ba'zi rusumlarida barabanda 4 ta rangni "aralashmasi" (ya'ni baraban tonerni barcha ranglari tushishi uchun bir nechta aylanishlar qiladi) sodir bo'ladi va qog'ozga bosiladi. Har qanday xolda ham barcha toner ranglarini qog'ozga ko'chirilgandan keyin mustaxkamlash blokka – qizdirilgan valiklarga tushadi. Rangli lazerli printerlar narxi doim tushishiga qaramasdan, ular qiymati baribir qimmat. Biroq bunday bosishlarni tezligi katta emas. Bu qog'ozda tayer tasvir paydo bo'lishi uchun baraban bir nechta aylanishi kerak bo'ladi.

Termoprinterlar.

Rangli lazerli printerlar hozircha ko'ngildagidek emas. Rasmga yaqin bo'lgan sifatli rangli tasvir olish uchun, yoki bosmagacha rangli namuna tayorlash uchun termik printerlar yoki yo'qori darajali rangli printerlar ishlatiladi. Hozirgi kunda rangli termobosmani uchta texnologiyasi keng qo'llanilmoqda;

- Erigan bo'yoqni oqimli o'tkazish (termoplastik muhr);
- Erigan bo'yoqni kontaktli o'tkazish (termomli muhr)
- Bo'yoqni termoutkazish (sublimatsion muhr)

Ikkita keyingilari uchun umumiy texnologiya bo'yoqni qizdirib, qog'ozga suyuq yoki gazli fazada o'tkazish bo'ladi.

Ko'p rangli, odatda, 5-mkm enlikdagi ingichka lavsanli plyonkaga tushurilgan. Plyonkali ignali printer, tuguniga o'xshash bo'lgan tasma tortuvchi mehanizm yordamida harakatlanadi. Isiydigan elementlar matritsasi 3-4 marta o'tishda rangli tasvirni shakllantiradi. Termomumli printerlar rangli mumli tasmani qidirib qog'ozga erigan mumni tushiradi. Albatta, bunday printerlar uchun mahsus qoplamali qog'oz zarur. Termomumli printerlar, odatda rangli bosmani yuqori sifat talab etadigan joylarda ishlatiladi. Rasmdan farq qilmaydigan tasvirni bosish uchun va bosmagacha namuna tayorlash uchun yahshisi sublimatsion printerlarni ishlatish kerak. Ishlash uslubi bo'yicha

ular termomumlarga o'lishaydi, lekin tasmadan qog'ozga faqat(mum bo'lmagan)bo'yoqni o'tkazadi.

Eritilgan bo'yoqni oqimli o'tkazishni qo'llaydigan printerlarni qattiq bo'yoqli mumli printerlar deb ham atashadi. bosmada rangli mum bloklari eriydi va har qanday tekislikda to'yingan ochiq ranglarni yaratib tarqatuvchiga sachratadi. Bunday yo'l bilan olingan, suratlar zarrachali bo'lib ko'rinadi, ammo fotografik sifatni barcha mezonlarni qondiradi. Bunday printer diopozitlari ishlab chiquvchilar uchun to'g'ri kelmaydi, chunki mum tomchilari qurigandan keyin yarimsharsimon shaklga ega bo'ladi va sharsimon ta'surot yaratadi.

O'zida sublimatsion va termomum bosish texnologiyasini o'zida mujassamlagan termik printerlar ham mavjud.


Bunday printerlarda bitta uskunada ham qorali, ham oqli suratlarni bosish mumkin.

1-jadval. Termik printerlarning asosiy o'lchovlari.

Parametr	Fargo PrimoPro Color Printer	General Parametrics Spekta Stapl DS	TEtro nixPaser 220i
Bosma texnologiyasi	Sublima tsion/termovo skli	Sublimatsi on	Termo plastik
Maksimal kenggaytgich	600x300	300x300	300x6 00
Xotira(standart/ maksimal)Mayt	0,032/0, 032	16/96	10/14
Rangli bosma tezligi, minutiga betdan	0,1(subl im.) 0,6(subl ime)	0,6	0,7
protsesor	CPUPCdan	33MGts Intel	16MGts

	foydalanadi	80960	AMD 29000
--	--------------------	--------------	------------------

Matritsali printerlar.



Matritsali printerlar lazerli va oqimli printerlardan farq qiladi. Eng katta farq: lazerli yoki oqimli printerlar kabi matritsali printerlar qog'ozni to'liq shakllantirmaydi, faqat belgilar oqimi

bilan ishlaydi. Matritsali printerlar razreshenyasi bosmalovchi mehanizm imkoniyatlariga bog'liq. Matritsa bo'yaydigan tasma orqali qog'ozga uriladigan metall ignalar to'rini ifodalaydi. Unda lazerli yoki oqimli printerlar kabi xotirada ma'lumotlar to'plami yoki fotosezuvchan baraban shabloni yo'q. Shunday qilib matritsali printer kengaytmasi ignalar soni bilan aniqlanadi (ko'pincha 9 yoki 24). 24 ignali printer 9 ignali printerga qaraganda nuqtasini kattaligi kichikroq printerlarni qolgan turlariga o'xshab, belgilarni aks etish uchun nuqtalarni katta miqdorda ishlatish, ulardagi "qo'pollikni" kamaytiradi. Matritsali printerlarda interpolyatsiyani yoki kengaytmasini yaxshilash uchun texnologiyani qo'llashning iloji yo'q, shuning uchun matritsali printerlar kengaytmasi doimiy kattalikda bo'ladi.

Ular asosan ASC II- simvollar oqimi bilan ishlaydilar, demak, ularga xotiraning katta hajmi kerak emas. Matritsali printerlarni ishlash tezligi belgilarni sekund ichida bosish orqali o'lchanadi. Matritsali printerni bosma' jarayoni juda oddiy. Buning uchun PCL yoki Post Script ga o'xshash betni ta'riflash uchun murakkab tilni ishlatish shart emas. Komp'yuterdan kelayotgan ma'lumotlar oqimi escape – belgilar ketma – ketligiga ega va bu ma'lumotlar printerni asosiy, bet o'lchovi va bosma' sifati kabi o'lchovlarini belgilash uchun ishlatiladi. Printerni boshqaradigan kodlarni shakllantirishni barcha murakkab jarayonlari komp'yuterda bajariladi. Matritsali printerda qog'oz vertikal lotokga joylashtiriladi va valik yordamida qatorma – qator suriladi. Bosmalovchi boshcha gorizontaal maxsus yonalish bo'yicha harakat qiladi va qog'ozda tasvirni bosib chiqaradigan metall ignalardan (ko'pincha 9ta yoki 24ta ignalar) matritsa iborat bo'ladi. Ignalar va qog'oz orasida yozuv mashinkasidagi kabi bo'yaydigan tasmasi joylashgan.

Ignalar (tasma orqali) tasvirni shakllantirish uchun qog‘ozda qator kichkina nuqtalarni yaratadi. Grafik tasvirlarni matritsali printerlarda bosma’ qilish yo‘qori sifatni bermaydi, shuning uchun bunday printerlar matnli xujjatlarni bosma’ qilish uchun ishlatiladi. Deyarli hamma matritsali printerlarda bosma’ qilishda ham alohida qog‘ozlarni, ham rulonli qog‘ozlarni ishlatish mumkin. Matritsali printerlarni hozirgi kunda kam uchratamiz – chunki ularni oqimli va lazerli printerlarga almashtirdi. Matritsali printerlar ishlatiladigan yagona joy – banklar va savdo shaxobchalari.

Profilaktik xizmat.

Matritsali printerlar qolgan printerlarga qaraganda ko‘proq chang va ifloslarni “yig‘ar” ekan. Bu bo‘yaydigan tasma va bosmalovchi boshcha orasidagi kontakt natijasidan, hamda printerda qog‘ozni uzoq harakat qilishi natijasida sodir bo‘ladi. Printer ishlaganda bo‘yaydigan tasma doym bosmalovchi boshchada “toza “ joyi bo‘lishi uchun harakat qiladi. Bunday harakatda tasmadan bo‘yoq qolmagan joyidan tukchalari ajralib chiqaveradi. Bu tukchalar ignalarni to‘xtab qolishiga sabab bo‘ladi. Ishlamayotgan ignani boshlash juda oson: belgilarni bosayotganda “bo‘shliq “ hosil bo‘ladi. Iflosliklarni bartaraf etish uchun bo‘yaydigan tasmalarni maxsus turlarini olib ishlatish zarur. Qog‘oz printerda uzoq vaqt bo‘lgani uchun qo‘shimcha muommolar kelib chiqadi. Matritsali printyerdai qog‘oz uzatilishi uzatish mexanizmi va qog‘oz chetlaridagi teshikchalar orqali amalga oshiriladi. Qog‘ozdagi teshikchalarni printerga to‘g‘ri o‘rnatilgani uni to‘g‘ri uzatilishini, hamda printerni kamroq ifloslanishini ta‘minlaydi. Agar kerakli joyda teshik bo‘lmasa, yo‘naltiruvchi mexanizm teshikni o‘zi hosil qiladi. Tabiiyki, bunda qog‘oz bo‘lakchalari printer ichiga tushadi. Printyerdagi qog‘oz changgini tozalash uchun changyutgichdan foydalanish zarur, bosmalash boshchasini esa spirtli suyuqlik bilan tozalab artib turish kerak.

Skanerlarning asosiy turlari. Skanerlar. Skanerlarning asosiy xarakteristikalar. Varoqli skanerlar. Barabanli skanerlar. Slayd-skanerlar. Digitayzerlar.

Nazorat savollari:

1. Printerlarni asosiy turlari.
2. Printer xotirasi.
3. Ishlash uslublari.

4. Okimli printerning ishlash printsiplari.

8 – Mavzu: Skanerlarning asosiy turlari.

Reja:

1. Skanerlar. Skanerlarning asosiy xarakteristikalar.

2. Varakli skanerlar.

Kompyuterning deyarli har bir foydalanuvchisi qog‘oz shaklidagi hujjatlarni elektron shaklga almashtirish muammosiga duch keladi. Biroq axborotni qo‘lda kiritish protsedurasi ulkan vaqtni oladi va xatoliklar tug‘ilishi mumkin. Bundan tashqari qo‘lda tasvirlarni emas, balki faqat matnlarni kiritish mumkin. Buning iloji skaner bo‘lib, u kompyuterga rasmlarni ham, matnli hujjatlarni ham kiritish imkonini beradi

Skanerlar qog‘ozdan, plyonkadan yoki boshqa qattiq tashuvchilardan “analogli” matnlarni yoki rasmlarni o‘qiydi va ularni raqamli formatga o‘tkazadi. Ular hamma yerda: ulkan hujjatlar arxivi ishlab chiqiladigan katta idoralarda, nashriyotlarda va loyixalash – konstruktorlik idoralarida, shuningdek, unchalik katta bo‘lmagan firma va uy-offislarda qo‘llanadi. Skanerlarning qo‘llanish doirasi qanchalik keng bo‘lsa, ularning turlari ham shunchalik ko‘pdir. Skanerning bahosi bir necha o‘n dollardan bir necha o‘n minglab dollargacha bo‘lishi mumkin, optik ajratish qobiliyati bir dyuymga 100 dan 11000 nuqtagacha (inglizcha dpo, dot per inch) skanerlash tezligi esa 1-2 dan 80 b/min mingacha bo‘lishi mumkin. U yoki bu aniq vazifalarni bajarishi uchun har qanday rusum ham qo‘llana olmaydi. Odatda, skanerning yaroqliligi uning texnik parametrlari majmui: konstruktiv toifasi, formati, ajratish qobiliyati, rang chuqurligi, optik zichliklar diapazoni va h.k.bilan belgilanadi.

Skaner toifalari

Hozirgi kunda skanerlar 4 konstruksiyada- qo‘l bilan, varoq tortish bilan, planshetli va barabanli shaklda ishlab chiqarilmoda, shu bilan birga ularning afzalliklari bilan bir qatorda, kamchiliklari ham bordir.

Qo‘l skanerlari –oddiy yoki o‘zi harakatlanuvchi skanerlar eni 10 sm atrofidagi hujjat qatorlarini ishlab chiqadi va eng avvalo uni mobil SHK egalari uchun ko‘proq ishlatadi. Ular sekin ishlaydi, past optik ajratish qobiliyatiga ega (odatda bir dyuymga 100mm) va ko‘pincha tasvirlarni qiyshiq tasvirlaydi. Biroq ular ixcham va qimmat emas.


Varoq tortuvchi skanerlarda, faksimil apparatidagi kabi, hujjat sahifalari o‘qishda y o‘rnaltiruvchi ro‘liklar (bular ko‘pincha chiqishda rasmni qiyshiq bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin) yordamida maxsus tirqish orqali o‘tkaziladi. Shunday qilib bu tipdagi skanerlar ma‘lumotlarni bevosita jurnal yoki kitoblardan kiritish uchun yaroqsizdir. Umuman varoq tortuvchi skanerlarning imkoniyatlari cheklangan, shu sababli ularning ommaviy bozordagi narxi pasaymoqda.

Planshetli skanerlar juda univasaldir. Ular nusxalash apparatining yo‘qori qismini eslatadi: originalni-qog‘oz hujjat yoki yassi narsani – maxsus oyna ustiga qo‘yiladi, oyna ostida optikali va analog-raqamli o‘zgartirgich bo‘lgan karetk ko‘chib yuradi (biroq oyna va original ko‘chib yuradigan, optika va ARO‘I qo‘zg‘almas bo‘lgan “planshet ”lar ham mavjud, bunda skanerlash sifati yo‘qoriroq bo‘ladi). Odatda planshetli skaner originalni pastdan yoritib, o‘zgartirgich pozitsiyasidan uni o‘qiydi. Plyonka yoki diapozitivdan tasvirni aniq skanerlash uchun originallarni go‘yoki orqasidan yoritish lozim. Buning uchun slaydli qoshimcha xizmat qiladi, u lampadan iborat bo‘lib, skanerlovchi karetk bilan sinxron ravishda ko‘chadi va rang temperaturasiga ega bo‘ladi.

Barabanli skanerlar yorug‘lik sezgirliги bo‘yicha planshetli qurilmalardan juda ustun bo‘lib, rasmlarni yo‘qori surat bilan tiklanishi talab etiladigan poligrafiyada qo‘llanadi. Bunday skanerlarning ajratish qobiliyati odatda bir dyuymga 8000-11000 va undan ortiq nuqtani tashkil etadi. Barabanli skanerlarda originallar baraban deb ataladigan shaffof silindrning ichki yoki tashqi tomoniga (rusumiga qaraba) joylashtiriladi. Baraban qancha katta bo‘lsa, uning sirti original montaj qildigan yuzi ham shuncha katta, shunga mos ravishda, skanerlanuvchi maksimal soha ham shuncha katta bo‘ladi. Original montaj qilingandan so‘ng baraban harakatga keltiriladi. Bir aylanishda piksellarning bitta chizig‘i o‘qiladi, demak, skanerlash jarayoni tokarlik – vint o‘yish stanogi ishini juda eslatadi. Slayd orqali o‘chgan (yoki noshaffof originaldan qaytgan), kuchli lazer tomonidan

yaratiladigan ingichka yorug'lik nuri oynalar tizimi orqali FEK (fotoelektron ko'pytirgich) ga tushadi va u y erda raqamlarga aylantiriladi.

Skanerning eng keng tarqalgan turi, bu-planshetlidir. 1-rasmda uning ish tamoyili keltirilgan.



1-rasm.Skaner ishining sxemasi

Bularda ham, skanerlarning boshqa tiplaridagi kabi, originaldan qaytgan nur ishlatiladi. Biroq qo'lli va varaq tortuvchi qurilmalardan farqli o'laroq stol usti rusumlari qaytgan nurni aniqroq qayd etish mexanizmiga ega. Bu rusumlarda nur skanerlashdan keyin va hatto undan oldin uzunroq yo'l o'tadi, chunki u rangli tasvirlarni skanerlashda qizil, yashil va ko'k tashkil etuvchilarni ajratish uchun yorug'lik filtrlaridan o'tadi. Yorug'lik nuri originalga tushadi, undan qaytadi va oynalar tizimi orqali yorug'lik sezgir diodlarga tushadi, u yerda elektr signaliga o'zgartiriladi. Bu signal analog-raqamli o'zgartirgichga tushadi, u yerda original piksellerini (bo'z rangning oq va qora tushlari,

rangli tuslar) ifodalaydi. Bu raqamli axborot keyingi ishlab chiqish uchun kompyuterga uzatiladi.

Skannerlarni ulash interfeyslari.

Stol usti skannerlarining barcha zamonaviy rusumlari kompyuterga ulanish uchun ushbu interfeysdan foydalanadi: parallel port, SCSI va USB.

Parallel port.

Bu interfeys quyi darajali interfeyslarda qo'llaniladi. IEEE 1284 standartiga mos portlardan (ECP va EPP portlaridan) foydalanilganda ma'lumotlarni uzatish tezligi ortadi. Barcha kompyuterlarda parallel port borligi uchun bu interfeysli skannerlar universaldir.

Parallel ulanishli skannerlar bir qator muhim kamchiliklarga ega. Birinchidan, parallel portga bir vaqtda ulangan skaner va printer yoki boshqa qurilmaning (zip, LS-120 yoki CD-R/CD-RW) me'yoriy ishlashi har doim ham ta'minlayverishiga erishib bo'lmaydi. Ikkinchidan, ma'lumotlarni uzatish tezligi parallel port tezligi bilan cheklangan. Sizning kompyuteringizda yangi ECP yoki EPP portlar o'rnatilgan bo'lsa ham, ular SCSI yoki USB interfeysidan foydalanilgandagi kabi ma'lumotlar uzatish tezligiga erisha olmaydi. Skannerni bunday ulash tipidan biror-bir sabablarga ko'ra boshqa interfeyslardan foydalanish iloji bo'lmaganidagina foydalanish mumkin.

SCSI interfeysi

SCSI interfeysiga turli qurilmalarni, shu jumladan, skannerlarni ham ulash mumkin. Bu ulash usuli ma'lumotlarni qoniqarli uzatish tezligini ta'minlaydi. SCSI-adapterlarining zaruriy platalari skaner bilan birgalikda sotiladi.

USB interfeysi

So'nggi vaqtlarda USB shinasi, ayniqsa uni Windows 9x operatsion tizimini qo'llaydigan qilinganidan so'ng juda ommalashdi. Bu ulanish tipi ko'p tayyorgarlikka ega bo'lmagan foydalanuvchiga juda qo'l keladi – kabelni ulansa bo'ldi, tizimning o'zi barcha zaruriy dasturiy ta'minotni mustaqil o'rnatadi.

Nazorat savollari:

- Skannerlar. Skannerlarning asosiy xarakteristikalar.
- Varakli skannerlar.

9 – Mavzu: Katta xajmli tashqi xotira qurilmalari.

Reja:

1. **Optik diskli jamlovchi qurilma (ODJQ). ODJQ ning xarakteristikalari va ko'rsatkichlari.**
2. **ODJQ ning asosiy qulayliklari.**
3. **Klassik kompakt-disklar.**
4. **Raqamli universal disklar.**
5. **CD-ROM ning qayta yozib bo'lmaydigan lazerli-optik diskleri.**
6. **Raqamli DVD disklar. DVD-RAM va DVD-RW**

Tasvirni tuzishda videoadapter **xotiraga murojat qiladi**. Videoadapter xotirasining sig'imi turlicha bo'lishi mumkin: 1, 2, 4, 8, 16 yoki 128 Mbayt. Zamonaviy platalarning ko'pchiligi kamida 32 Mbayt, aksariyat kompyuterlarda 16 Mbayt sig'imli videoxotira o'rnatiladi. Qo'shimcha xotira videoadapterning tezligini oshirmaydi, lekin tasvir kengaytmasini va/yoki hosil qilinayotgan ranglar miqdorini oshiradi.

Videoxotira sifatida xotiraning turli tipdagi mikrosxemalari qo'llanilishi mumkin.

Videoadapterning raqamli analogli o'zgartkichi (odatda *RAMDAC deb ataluvchi*) kompyuter generirleydigan raqamli tasvirlarni monitor tasvirlashi mumkin bo'lgan analog signallarga o'zgartiradi.

Raqamli analogli o'zgartkichining tezligi MGts da o'lchanadi; o'zgartirish jarayoni qancha tez bo'lsa, regeneratsiyasining vertikal chastotasi shuncha yo'qori bo'ladi. Zamonaviy yo'qori unumli videoadapterlarda tezlik 300 MGts va undan yo'qori bo'lishi mumkin.

Shu Bobda videoadapterlarning rusumlari shinalarning mos tiplari uchun mo'ljallanganligi xaqida so'z yuritdik. Masalan, VGA, XGA i XGA-2 adapterlari MCA shinasi uchun ishlab chiqilgan. Videoaxborotni qayta ishlash tezligi kompyutyerdagi tizimli shinaga bog'liq (ISA, EISA yoki MCA). ISA shinasi 16-razryadli, 8,33 MGts takt chastotali. EISA va MCA shinalari orqali bir vaqtda 32 bit ma'lumot uzatish mumkin, lekin ularning takt chastotasi 10 MGts dan ortmaydi.

Bu muammo VESA yoki oddiygina VL-Bus deb ataluvchi asosiy shina qo‘shimcha shina sifatida foydalanadigan shina yordami bilan eychildi. Masalan, ISA shinali kompyuterda VL-Bus ulanish joylari o‘rnatilgan. VL-Bus shinasini 32 –razryadli, 40 MGts gacha bo‘lgan protsessorning tezligiga teng. Shunday qilib, tizimda optimal sozlangan VL-Bus shinasidan foydalanish orqali katta tezlikka erishish mumkin.

1992 yilning iyulida Intel o‘zining ishlanmalarida tashqi qurilmalarni protsessorga maksimal yaqinlashtiruvchi PCI shinasini qo‘llay boshladi. Ikkinchi talqinda mukammal tizimli shina ko‘rinishiga ega bo‘ldi. PCI-2 shinasida lokal shinasining tezligi va asosiy protsessoridan ma’lum bir mustaqillik mujassamlangan. PCI shinasini uchun mo‘ljallangan videoadapterlar, platalar singari VL-Bus ga yo‘naltirilgan, va videotizimning unumdorligini orttirishi mumkin; ular Plug and Play texnologiyasi bo‘yicha loyixalangan va sozlashni umuman talab qilmaydi.

Shinani ishlab chiqish sohasidagi eng zamonaviy tizimli yangilik –bu, tezligi yo‘qori grafik port (AGP). Bu Intel firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan, maxsus ajratilgan videoshina. Shina PCI shinasiga qaranda 4 marta katta bo‘lgan maksimal o‘tkazish qobiliyatiga ega. Umuman olganda, AGP shinasini PCI ning kengaytmasi desa bo‘ladi va faqat videoadapterlar bilan ishlash uchun mo‘ljallangan. Bu shina ular uchun kompyuterning operativ xotirasiga yo‘qori tezlikdagi kirisni taminlaydi. Bu esa adapterga uch o‘lchovli tasvirlarning ba’zi elementlarini, qayta ishlash uchun adapterning xotirasiga nushalamasdan, bevosita tizimli xotirada qayta ishlashga imkon beradi. Bunda vaqt tejaladi va uch o‘lchovli tasvirlarni qayta ishlash funksiyalarini qo‘llashni yahshilash uchun videoadapter xotirasining hajmini kattalashtirish talab qilinmaydi. AGP shinasini Pentium II uchun maxsus ishlangan bo‘lsa ham, u protsessoridan mustaqildir.

Hozirgi vaqtda uch turdagi AGP shinasini mavjud, ular: 1x, 2x i 4x. AGP ning 1x original talqini 66 MGts chastotasida ishlaydi va, taxminan, 32 razryadli PCI videoadapterning ikkilangan tezligiga teng bo‘lgan 266 Mbayt/s ma’lumotlarni uzatishning maksimal tezligini ta’minlaydi. AGP ning keyingi 2x rusumi 133MGts chastotada ishlaydi va 533 Mbayt/s ma’lumotlarni uzatish tezligini ta’minlaydi. AGP ning eng so‘nggi talqini 4x rejimni qo‘llaydi va 1Gbayt /s ma’lumotlarni uzatish tezligini ta’minlaydi.

Naorat savollari:

1. Optik diskli jamlovchi qurilma (ODJQ). ODJQ ning xarakteristikalari va ko'rsatkichlari.
2. ODJQ ning asosiy qulayliklari.
3. Klassik kompakt-disklar.
4. Raqamli universal disklar.
5. CD-ROM ning qayta yozib bo'lmaydigan lazerli-optik diskleri.
6. Raqamli DVD disklar. DVD-RAM va DVD-RW

12 – Mavzu: Prezantatsiya yaratish uchun MS PowerPoint dasturi.

Reja:

- 1. Prezantatsiya yaratish uchun MS PowerPoint multimediali paket.**
- 2. Taqdimotni avtomundarija ustasi yordamida yaratish**
- 3. Taqdimotni saqlab qolish**

Taqdimotni avtomundarija ustasi yordamida yaratish

Power Point dasturi ishga tushirilganidan so'ng ekranda uning muloqot darchasi paydo bo'ladi. Unda dastur bo'sh taqdimot tuzishi yoki taqdimotni avtomundarija ustasi yordamida yaratishni taklif qiladi. Bunda, shuningdek, mavjud taqdimotning faylini ochish imkoniyatini beradi. Agar siz taqdimot tayyorlashda yangi bo'lsangiz va sizga aynan qaysi natija kerakligini uzil-kesil hal qilolmayotgan bo'lsangiz, tegishli pereklyuchatelni tanlab va Power Point darchasidagi OK tugmasini bosib avtomundarija ustasi yordamidan foydalaning. Usta sizning javoblaringizga bog'liq ravishda 8-12 slayddan iborat taqdimotni tuzadi. Bu slaydlarni istalgan paytda o'zgartirish mumkin.


Bu ishlarni bajargandan so'ng ustaning keyingi muloqot darchasiga o'ting va taqdimotning turini (1-rasm) tanlang.

Power Pointni ishlab chiqqanlar avtomundarijaning ustasini takomillashtirdilar: har xil xarakterli, masalan tayyor animatsiyali yangi andozalarni qo'shib taklif qilinadigan andozalar sonini oshirdilar. Qo'shib kiritilgan andozalar vositasida yaratilishi mumkin bo'lgan taqdimotlar mavzusi, doirasi kengaydi: usta ishchi guruhlar majlisi uchun taqdimotlar yaratish, moliyaviy hisobotlar, reklama bukletlarni tuzish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuningdek, usta taqdimotni formatlashtirish va slaydlarni tashkil etish bo'yicha foydali maslahatlarni taklif qiladi. Power Point foydalanuvchilar ixtiyoriga Dale Cornege Training kompaniyasi taqdimotlarining sifatini ko'tarish bo'yicha tavsiyalari bo'lgan andozalar (konrnegining maslahatlari tugmasi)ni taqdim etadi.

Darchada taklif qilinayotgan andozalar orasidan siz doimo keraklisini topishingiz mumkin. Agar har holda variantlardan birortasi ham sizni qoniqtirmasa, taqdimotlarni, andozalarni hammasini ro'yxatini olish uchun **hammasi** tugmasini bosing. Taqdimot

andozasi (masalan, moliyaviy ahvolning sharhi)ni tanlab olib va **keyin** tugmasi bosilgach, siz undan taqdimot usulini tanlashingiz zarur bo'lgan avtomundarija ustasi darchasi (2-rasm)ga tushasiz. Agar Siz taqdimotni mustaqil o'tkazishni rejalashtirgan bo'lsangiz, **ekranda taqdimot qilish** opsiyasini yoqilgan holda qoldiring. Agar materiallar chop etilsa, keyin esa sizning ishtirokingizsiz avtomatik ravishda namoyish qilingan bo'lsa, **Internetda taqdimot qilish** opsiyasini tanlang.


Avtomatik ravishda taqdimot qilish – bu slaydlarni ma'ruzachining ishtirokisiz ko'rsatishda mujassamlashtirilgan, axborotning tarqatish usulidir. Masalan, taqdimotni ko'rgazma yoki konferentsiya vaqtida firmaning stendida avtomatik ravishda ko'rsatish uchun tayyorlash mumkin. Boshqaruv vositalarining ko'pchiligini foydalanuvchilar o'zgartirishlar kiritma olmasliklari uchun o'ynab bo'lmaydigan qilish mumkin. Barcha harakatlar bajarib bo'lingach, avtomatik taqdimot qaytadan ishga tushiriladi, qaysidir slayd ekranda 5 daqiqadan ortiq qolganda slaydlarni almashtirish paytida ham xuddi shunday harakatlar bajariladi.



1-rasm


Agar taqdimot proektorda ko'rsatish uchun tayyorlanayotgan bo'lsa, ustaning xuddi shu muloqot darchasida materiallarni berilish shaklini: oq-qora yoki rangli shaffoflikda (tiniqlikda) ya'ni 35 mm slaydlarda berilishi kerakligini belgilash zarur.

Keyingi muloqot darchasida taqdimotning sarlavhasini va ostki ustun titulining (3-rasm) matnini kiritish lozim. Bu firmaning nomi, qandaydir shior va hokazolar bo'lishi mumkin. Bu axborot taqdimotning titul slaydida joylashtiriladi.



2-рasm

Avtomundarija ustasining oxirgi darchasida Power Point taqdimotni tuzish bo'yicha oldindan qilinishi zarur bo'lgan ishlar tugallangani haqida habar qiladi va **tayyor** tugmasini bosishni taklif etadi. Biroz vaqt o'tgach ekranda taqdimotning titul slaydi paydo bo'ladi. Avtomundarija ustasining istalgan darchasidan yo'llash mumkin bo'lgan **tayyor** tugmasiga ahamiyat bering. Ushbu tugma istalgan darchada bosilgach, usta ishini yakunlaydi va boshqa darchalarda hamma parametrlarni qabul qilib taqdimotni yaratadi.



3-рasm

Тaqdimotni saqlab qolish

Taqdimot ustida ishlashni tugatgach, **fayl** menyusidan **saqlab** qolinsin buyrug'ini tanlang. Taqdimotlar fayllariga 255 ta ramzdan oshmagan nomlar berish mumkin. Saqlab qolinishi kerak bo'lgan faylning formatini tanlagan Power Pointning so'nggi versiyasida ishlab chiqilgan taqdimotni dasturning avvalgi versiyalarida ham ishlatish mumkinligini e'tiborga olish kerak. Buning uchun Power Pointning taqdimotini tegishli versiyada saqlab qolish kerak. Bundan tashqari taqdimotni uch tomonlama bichimda – Power Point-95 Power Pant-97 va Power Pant 2000 da saqlab qo'yish imkoniyati mavjud. Bu hollarda Power Point da ishlab chiqarilgan uchala versiyani ochish kerak, bunda faqat Power Point 2000da tuzilgan taqdimotlarinigina tahrir qilish va saqlab qolish mumkin. Agar taqdimot

shunday tarzda saqlab qolingan bo'lsa, faylning o'lchami kattalashadi va uni saqlab qolish uchun ko'proq vaqt talab qilinadi.

1-jadvalda taqdimotni saqlab qolish uchun fayllarning bichimlari keltirilgan.

1-jadval

Fayl tipi	Kengatmasi	ni saqlash uchun ishlatiladi
Taqdimot	RRT	Umumiy taqdimotni
Windows metofayli	WNI	Grafik shaklidagi slaydni
GIF bichimidagi rasm	GIF	Web-sahifalarda ishlatiladigan rasm shaklidagi slaydni
JPEG bichimidagi rasm	GPG	Web-sahifalarida ishlatiladigan rasm shaklidagi slaydni
PNG bichimidagi rasm	PNG	Web-sahifalarida ishlatiladigan rasm shaklidagi slaydni
RTF tuzilmasi	RTF	Taqdimotning tuzilma shaklidagi mazmuni
Taqdimot andozasi	POT	Andoza shaklidagi taqdimotni
Power Pant namoyishi	PPS	Doimo slaydlarni namoyish qilish rejimida ochiladigan taqdimotni
Web sahifa	HTM HTML	Brauzer darchasida ko'rib chiqish uchun taqdimotni

Taqdimotni Power Point 95 bichimida saqlab qolish ma'lumotlarining shunday qayta tuzilishi yoki formatlashtirishning shunday o'zgarishiga olib kelishi mumkinki, taqdimotning dastlabki ko'rinishini Power Point 2000da tiklashning iloji bo'lmay qolmaydi. Saqlashda birinchi marta qo'yilayotganda taqdimot haqida qo'shimcha ma'lumotlar (xususiyatlar)ni ham kiritish lozim, bu uni o'xshash ko'plab fayllar orasidan tezroq topish imkonini beradi. Xususiyatlar (nom, muallif, kalit so'zlar, so'nggi o'zgartirish sanasi)ni Microsoft Officening istalgan fayli uchun ko'rsatish mumkin. Xususiyatlarni kiritishni esdan chiqarib qo'ymasligingiz uchun **parametrlar** muloqot darchasining **saqlab qo'yish** ilovasidagi **fayllarning xususiyatlari so'ralsin** bayroqchasini o'rnatish.


Taqdimotning avtomatik tarzda saqlanishi

Foydalanuvchidan birortasi kompyuterning ishidagi to'xtatib qolishlaridan yoki elektr ta'minotining kutilmaganda o'chib qolishidan sug'urtalan (kafolatlan)magan. Saqlab qolinmagan ma'lumotlarni yo'qotishning oldini olish uchun **parametrlar** muloqot darchasining (**servis** menyusi) **saqlab qolish** ilovasida avtomatik ravishda saqlab qolish opsiyasini o'rnatish. Natijada, kiritilgan hamma o'zgarishlar avtomatik ravishda saqlab qo'yish fayliga vaqtning berilgan intervali (1 daqiqadan 120 daqiqagacha)dan so'ng yozib boriladi. Agar taqdimot fayli shikastlanadigan bo'lsa Power Point dasturi keyingi ishga tushurilishda avtomatik ravishda saqlab qo'yish dasturini ochadi. Shuni hisobga olish lozimki, bu fayl taqdimotni saqlab qo'yishda yoki yopishda avtomatik ravishda chiqarib tashlanadi. Shuning uchun avtomatik ravishda saqlab qo'yish taqdimotining oddiy saqlab qo'yilishini almashtira olmaydi.

Mavjud Word-hujjatning asosida taqdimot yaratish

Yangi taqdimot yaratish uchun paketning boshqa ilovalarida, masalan matn muharririda, ishlab chiqilgan hujjatlardan foydalanish mumkin. Power Point Word hujjatlarning, shuningdek, RTF, TXT yoki HTML bichimidagi hujjatlarning importini

qo‘llab quvvatlaydi. Taqdimot tuzilmasini yaratish uchun Word yoki HTML hujjatni yo RTF bichimidagi matn import qilinganida, hujjatlarning sarlavhalarining kompyuterga qo‘shib qurilgan (o‘rnatilgan) uslublari bo‘lgan xatboshi (abzats)lar qo‘llaniladi.




4-rasm.

Taqdimotni bunday hujjatlar asosida yaratish uchun:

- fayl menyusidagi ochilsin buyrug‘ini faollashtirish;
- ochilgan muloqot darchasidagi **fayllarning tiplari** ro‘yhatidan **hamma tuzilmalar** yoki hamma fayllar unsurini tanlash;
- xujjatning nomini **faylning nomi** maydoniga kiriting yoki talab qilingan hujjatni ikki marta chertish zarur.

Natijada Power Point darchasidpa import qilinayotgan hujjat ochiladi. **1 sarlavha** uslubi xatboshilar alohida slaydlarning sarlavhalariga, **2 - sarlavha** uslubi xatboshilar birinchi darajadagi matn xatboshilarga aylanadi va hokazo (5-rasm).

Agar hujjatlar kompyuterga qo‘shib chiqarilgan sarlavhalar uslublari vositasida formatlashtirilgan xatboshilar bo‘lmasa, Power Point xatboshilarning chekinishlariga asoslanib, taqdimotning tuzilmasini yaratadi. Oddiy matn import qilinganida taqdimotning tuzilmasi qator boshidagi tabulyatsiyaning pozitsiyalariga bog‘liq ravishda shakllantiriladi. Slaydlarning va matnning sarlavhalarini formatlashtirish hamma vaqt joriy taqdimotni formatlashtirilishning parametrlari bilan belgilanadi.



5-рasm.

Eslatma. Agar import qilingan hujjatda 1-sarlavha uslubi xatboshilar bo'lmasa, Power Point faqat bitta slayddan iborat bo'lgan taqdimot tuzadi.


Siz agar matn muharririda Power Pointning taqdimotini tuzishda ishlatiladigan hujjatni ochib, keyin fayl jo'natish-Microsoft Power Point buyruqni tanlaganingizda ham xuddi shu natijaga erishishingiz mumkin.

Shakllantirish (bezash) andozasi asosida taqdimot yaratish

Garchi avtomundarija taqdimotni yaratishda ajoyib yordamchi bo'lsada, ayrim hollarda uning imkoniyatlari etarli bo'lmay qoladi. Shuning uchun yana bir usul – shakllantirish (bezash) andoza taqdimot yaratish bilan tanishamiz.

Shakllantirish andozasini tanlash

Yangi taqdimot tuzishni boshlash uchun **fayl** menyusidaga **yaratilsin** buyrug'ini faollashtiring. Natijada ekranda **taqdimot tuzilsin** darchasi paydo bo'ladi, unda **shakllantirishning andozalari** ilovasiga (6-rasm) o'tish lozim.



6-рasm.

Andozalarning birini yerting va siz uning namunasini ko‘rib chiqish maydonida ko‘rasiz. Taqdimot andozalari o‘z ichiga ranglar (sxema)lari, slaydlarning va sarlavhalar moslashtirilgan shriftlarni oladi. Andoza tanlanganda bir yo‘la fanning ranglari, shuningdek, matnni grafikani, rasmlarni va slaydlarda joylashtiriladigan boshqa ob’ektlarni formatlashtirishning standart parametrlari belgilanadi. Agar bundan keyin sizga taqdimotning bezatishi yoqmasa, boshqan andozani tayinlash (tanlash) mumkin. Andoza tanlab bo‘lingach, taqdimotga qo‘shiladigan har bir slayd bezatish (shakllantirishning) andozasini uni qo‘shaloq chertib yoki OK tugmasini bosib tanlang.

Natijada **slaydni yaratish** muloqot darchasi ochiladi. Yangi slaydni standart avtomaket (hammasi bo‘lib 24-ta) andozaning o‘xshashini o‘rnatishni tavsiya etiladi. Tuzilayotgan slayd uchun avtomaketni tanlash **avtomaketni tanlang** sohasida (maydonida) amalga oshiriladi. Avtomaketning qisqacha ta’rifi darchaning pastki o‘ng burchagida aks ettiriladi.

O‘z ichiga umumiy sarlavhalarni kiritgan titul slaydi taqdimotning birinchi slaydi bo‘lishi kerak. Slayd cheklangach, u ko‘rib chiqish darchasida paydo bo‘ladi. Taqdimotning sarlavhasini va titul slaydida joylashishi kerak bo‘lgan boshqa ma’lumotlarni kiriting. Keyin, slayd to‘ldirib bo‘lingach, uskunalar standart panelining **yangi slayd** tugmasini cherting yoki **ilova** menyusidan **yangi slayd** buyrug‘ini chaqiring (tanlang) so‘ngra navbatdagi slayd uchun maket tanlang. Shundan so‘g oldingi qadam (harakat)ni takrorlang. Taqdimotni tugatgach, uni saqlab qo‘yishni unutmang.

Taqdimotni tahrir qilish

Foydalanuvchi avtomundarija ustasi yordamida tuzilgan taqdimotni takomillashtirishi mumkin. Buni amalda sinab ko‘rish uchun «moliyaviy ahvolni sharhlash» andozasiga asoslangan taqdimot qanday o‘zgartirilishini ko‘rib chiqamiz. Bunda bizning ishimiz taqdimotning o‘z ichiga matn, diagrammalar va jadvallarni olgan uchta slaydini to‘g‘rilash (korrektirovka qilish) gacha qisqaradi.

Taqdimotning birinchi slaydi tizimning bosh foydalanuvchisi haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, shuning uchun bu slayd ichidagilarini hozircha o‘zgartirishsiz qoldiramiz. Boshqa slaydlarni ichidagilarni almashtirishga harakat qilib ko‘ramiz: yangi matn kiritamiz, diagrammalar yaratish uchun asos bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zgartiramiz va jadvallarni modifikatsiyalashtiramiz.

Amaliy ko'nikmalarni olishni davom ettirish uchun.

- **slaydlar rejimi** tugmasini bosib va slaydlarni ko'rib chiqish rejimini o'rnatib.
- aylantirib ko'rish tugmachasi (Page Down) yoki yo'lagi yordamida taqdimotning ikkinchi slaydiga o'ting. U ramkalarga joylashtirilgan sarlavhalar (ustki yozuvlar) va markirovka qilingan ro'yxatni o'z ichiga oladi.
- sichqoncha bilan slaydning o'ng yarmini chertib, buni natijasida ramka paydo bo'ladi, sichqonchaning ko'rsatkichini kiritish kursori ko'rinishini oladi.
- kursorni maydon ichida o'rnatib va eski matnni yangisi bilan almashtirib.

Taqdimotning badiiy bezagi.

Endi Power Pointning taqdimotning badiiy jihatdan bezash sohasidagi imkoniyatlarini ko'rib chiqishga o'taylik. Usta yoki andoza yordamida yaratilgan taqdimot ko'rib chiqilgach, sizda slayd kiritish, uni chiqarib tashlash yoki joyini o'zgartirish, matn yoki rasmning formatlanishini o'zgartirish xohishi paydo bo'lishi mumkin.

Shuni ham hisobga olish lozimki, ilgari saqlab qo'yilgan taqdimot ochilganida Power Point hamma vaqt sarlavhaning slaydini yoki taqdimotning birinchi slaydini chiqaradi. Taqdimotni to'liq ko'rib chiqish uchun siz sichqonchadan yoki klaviaturdan foydalanishingiz mumkin. Power Point dasturida taqdimot bo'yicha harakat qilishning bir nechta usuli mavjud. Eng oddiy usuli – kerakli slaydning tuzilma yoki ishchi sohasini (slaydlarning saralovchi rejimida) chertishdir.

Navbatdagi yoki avvalgi slaydga o'tishga kursorni boshqarish tugmachalari va shuningdek, aylantirib ko'rish vertikal yo'lakchasining ostki qismida joylashgan oldingi **slayd** va **navbatdagi slayd** tugmalari imkon beradi. Taqdimotning hammasini slaydlar rejimida, tuzilma rejimi yoki odatdagi rejimda ko'rib chiqishning eng qulay usuli aylantirib ko'rish vertikal yo'lagini yuguruvchisining harakatlanishida mujassamlangan. Bunday hollarda yuguruvchining (begunok) yonida siz sichqonchaning tugmachasini qo'shib yuborganingizdan so'ng o'tadigan slaydning raqamini ham o'z ichiga olgan aytib berish aks etadi.

Bir yoki bir necha slaydni olib tashlash uchun ularni ajratish va Delete tugmachasini bosish kerak. Yangi slaydni kiritish uchun avval taqdimotning slayd undan keyin kiritilishi kerak bo'lgan slaydni ajratish lozim. Shundan so'ng kiritish (Vstavka) menyusidagi **yangi slayd** buyrug'ini faollashtirib. Ochilgan **slayd yaratish** muloqot darchasidan kerakli avtomaketni tanlab va OK tugmasini bosib.

Taqdimot amalda bir biridan farqlanmaydigan slaydlar (masalan, turli xildagi ma'lumotlardan iborat bo'lgan, lekin bir xilda bezatilgan, shakllantirilgan jadvalarli slaydlar)ni o'z ichiga kiritish mumkin. Bunday slaydlar qo'shilayotganda ulardan bittasini tayyorlash keyin esa taqdimotga shakllantirib bo'lingan slaydning bir nechta nusxasini kiritib, jadvaldagi ma'lumotlarni o'zgartirish kifoya. Avval esa takrorlash lozim bo'lgan slaydlarni ajratib, keyin esa **kiritish (Vstavka)** menyusidan **slayd takrorlansin** buyrug'ini tanlab.

Ko'rib chiqishning hamma rejimida slaydlarning izchilligi tartibini o'zgartirish jarayoni bir xilda bajariladi. Tuzilma sohasida (yoki agar slaydlarni saralash rejimi o'rnatilgan bo'lsa shu sohada) kerakli slayd tanlanadi va yangi joyga ko'chiriladi.

Nazorat savollari:

1. Prezentatsiya yaratish uchun MS PowerPoint multimediali paket.

2. Taqdimotni avtomundarija ustasi yordamida yaratish
3. Taqdimotni saqlab qolish
4. Taqdimotning badiiy bezagi.
5. Taqdimotni tahrir qilish

11 – mavzu: Audiokonferentsyalar va videokonferentsiyalar.

Reja:

1. Taqdimotni boshqa kompyuterda ko'rsatishga tayyorlash
2. Taqdimotni chop etish
3. Elektron taqdimot
4. Taqdimotni ishga tushirish
5. Taqdimotni Internet uchun tayyorlash

Taqdimotni boshqa kompyuterga o'tkazish jarayonida taqdimot faylini o'rash (upakovka qilish) va unga foydalaniladigan shriftlarni joriy qilish kerak. O'rash (upakovka qilish) digan hamma shriftlarni o'rash (upakovka qilish) ni alohida diskni amalga oshiruvchi maxsus usta yordamida bajariladi. Agar taqdimotni o'zgartirish uchun taqdimotda ishlatiladigan shriftlari yo'q bo'lgan kompyuterdan foydalanilsa, slaydlarning tashqi ko'rinishni sezilarli darajada o'zgarishi mumkin. Shriftlar o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish uchun hamma shriftlarni taqdimot fayliga joriy qilish kerak. Foydalanuvchi taqdimotga Windows tizimida o'rnatilgan istalgan shriftni kirgizishi mumkin. Bunday taqdimot joriy qilingan shriftlar bilan birga saqlab qolinganda faylning o'lchami kattalashishini hisobga olish kerak.

Agar siz slaydlarni ko'rsatishda ishlatishni rejalashtirgan kompyuterda Power Pointning ilovasi o'rnatilmagan bo'lsa, taqdimotning fayliga Power Pointning slaydlarini ushbu ilova o'rnatilmagan kompyuterlarda namoyish qilish imkonini beruvchi ko'rib chiqish dasturini ulash kerak bo'ladi.

1. taqdimotning faylini o'rash (upakovka) qilish uchun **fayl** menyusini oching va **o'ralsin (upakovka qilinsin)** buyrug'ini faollashtiring. Natijada upakovka (o'rash) ustasi ishga tushadi va siz faqat uning ko'rsatmalariga amal qilishingiz kerak bo'ladi, xolos (27-rasm).

2. keyin taqdimotni boshqa kompyuterda ko'rsatish uchun o'ramadan chiqarilgan taqdimotli papkani oching va uni tugmacha bilan uning ismini cherting va kontekst menyusidan **Ko'rsatilsin** buyrug'ini tanlang. Agar **ko'rsatilsin** buyrug'i etarli bo'lmasa, demak ushbu kompyuterda Power Pointning ilovasi ham, Power Pointning ko'rib chiqish vositasi ham o'rnatilgan emas.

Taqdimotni chop etish

Taqdimot materiallarini chop etishga chiqarish uchun Fayl menyusidan chop etish buyrug'ini chaqiring. Shundan so'ng ekranda boshqa ilovalarnig xuddi shunday darchalaridan deyarli hech narsasi bilan farq qilmaydigan muloqot darchasi ekranga chiqariladi. Biroq unda bitta alohida xususiyat bor. Printring tipini tanlash. Olinishi kerak bo'lgan nusxalar va hokazolarni berish uchun mo'ljallangan an'anaviy sohalar bilan

bir qatorda u taqdimotning qaysi unsurlarini: slaydlar, xabarlarini yoki tuzilma rejimidagi taqdimotni chop etishga chaqirishni, qaysi ob'ektlarni berishni ko'rsatish kerak bo'lsa **Chop etilsin** ro'yxatini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari bu darchada yashiringan fayllarni chop etish uchun opsiya bor (28-rasm).

Elektron taqdimot

Power Pointda taqdimotni o'tkazishning uchta rejimi mavjud:

1. Ma'ruza tomonidan boshqariladigan rejim. Bunda ma'ruzachi taqdimot ustidan to'liq nazoratni o'z qo'liga oladi. U taqdimotni qo'lda yoki avtomatik rejimda o'tkazishi, bildirilayotgan mulohazalar yoki qilinayotgan ishni yozib olish uchun to'xtatishi, shuningdek, taqdimot paytidagi chiqishlarni (so'zga chiqqanlarning nutqlarini) yozib olishi mumkin. Bu rejim taqdimotni qayita ekranda yoki konferentsiya paytida ko'rsatish uchun qulaydir.

2. Foydalanuvchi **tomonidan boshqariladigan rejim**. Slaydlar foydalanuvchiga taqdimotni mustaqil boshqarish imkonini beruvchi maxsus buyruqlari menyusi bo'lgan alohida darchada aks ettiriladi. Buyruqlar slaydlarni almashtirish, tahrir qilish, nusxa olish va chop etishni bajarish imkonini beradi. Bir slayddan ikkinchisiga o'tish uchun aylantirish yo'lagidan foydalaniladi. Bu bilan bir vaqtda boshqa ilova ham ishlashi mumkin. Bu rejimda Web uskunalar panelini aks ettirish va boshqa taqdimotlarni Microsoft Office ilovalarida yaratilgan hujjatlarni ko'rib chiqish mumkin.

3. **Avtomatik rejim**. Bu rejimda taqdimot ma'ruzachisiz namoyish qilinadi. Bu rejimda firmaning stendida, reklama darchasida ko'rsatish uchun taqdimotlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Avtomatik taqdimotni tayyorlashda uni o'zgartirishlardan himoya qilish uchun boshqarish vositalarining ko'pchiligini yo'llab bo'lmaydigan qilish kerak. Bu ishlar tugallangach, avtomatik taqdimot qaytadan ishga tushiriladi. Xuddi shunday voqea slaydlar qo'lda almashtirish paytida, qandaydir slayd ekranda 5 daqiqadan ortiq vaqt davomida qolganida ro'y beradi.

Taqdimotni ko'rsatish usuli tanlanganida, bu ish qayerda bajarilishi, namoyishning maqsadi, auditoriyaning tarkibini hisobga olish kerak bo'ladi. Taqdimotni ko'rsatish usulini berish uchun taqdimotni sozlash buyrug'ni faollashtiring va ochilgan muloqot darchasida ma'ruzachi boshqaradigan (to'liq ekran), foydalanuvchi tomonidan boshqariladigan (darcha), avtomatik ravishda boshqariladigan (to'liq ekran) (29-rasm) pereklyuchatellaridagi birini o'rnatish. Slaydlarning uzluksiz namoyish qilinishini ta'minlash uchun «Esc» tugmasi bosilguncha uzluksiz sikl opsiyasini yoqing. Rasmlar rangi ro'yxatidan taqdimot paytda slaydlarda yozuvlarni bajarish (slaydlarga yozish) uchun ishlatiladigan rangi belgilanadi. Sukut saqlash bo'yicha slaydlar sohasida hamma pereklyuchateli o'rnatilgan. Ma'ruzachi faqat ayrim slaydlarni namoyishini dan gacha pereklyuchatelini o'rnatib va ularning tartib raqamlarini tegishli maydonlarda ko'rsatib faqat shu slaydlarnigina ko'rsatish haqida topshiriq berishi mumkin. Shuningdek, namoyishni erkin o'tkazish imkoniyati ham mavjud.

Erkin ko'rsatishlar

Faraz qilaylik, sizga har xil auditoriyalar uchun umumiy mavzudagi taqdimotlar o'tkazishni topshirishdi. Siz bir nechta, deyarli bir xil bo'lgan taqdimot tuzishdan qochishingiz mumkin. Buning uchun bir taqdimot slaydlarini guruhlariga bo'lish, guruhlariga nom berish va har bir auditoriyaga unga mo'ljallangan slaydlar guruhini namoyish qilish kerak. Shunday qilib, bir taqdimot faylida turli auditoriyalarga mo'ljal

oldirilgan bir nechta mini (kichik) taqdimotlar erkin ko'rsatishlar yoki erkin namoyishlar deb ataladi. Power Point erkin ko'rsatishda slaydlarning izchilligini nazorat qilgani uchun ma'ruzachi ilgari yaratilgan erkin ko'rsatishlarni buzub qo'yish o'rnini almashtirish, birining o'rniga ikkinchisini qo'yishi mumkin.

1. erkin ko'rsatishni yaratish uchun **slaydlarni ko'rsatish** menyusidan **erkin ko'rsatish** buyrug'ini tanlang va yaratilsin tugmasini bosing (30-rasm);

2. **taqdimot slaydlari** ro'yxatidan erkin ko'rsatishga kiritilishi kerak bo'lgan slaydlarni ko'rsating va qo'shilsin tugmasini bosing. Ro'yxatning bir nechta unsurini ajratish uchun markirovka qilish paytida Ctrl yoki Shift tugmachalarini bosilgan holatda ushlab turing (31-rasm);

3. slaydlarni ko'rsatish tartibini o'zgartirishga **erkin ko'rsatish slaydlari** ro'yxati yonidagi strelkalari bor tugma imkon bo'ladi;

4. erkin ko'rsatish nomi maydonini to'ldiring va OK tugmasini bosing;

5. erkin ko'rsatishni oldindan ko'rib chiqish uchun **Erkin namoyish** muloqot darchasidan uning nomini ajrating va **ko'rsatilsin** tugmasini bosing.

Erkin ko'rsatishni tahrir qilish mumkin. Erkin ko'rsatish tuzib (yaratib) bo'linganidan so'ng slaydlar qo'shib yoki ularni chiqarib berib ko'rsatishni o'zgartirish mumkin. Buning uchun erkin ko'rsatish muloqot darchasining **o'zgartirilsin, chiqarib tashlansin va nusxa ko'chirilsin** tugmasidan mo'ljallangan. **Ko'rasitilsin** tugmasi erkin ko'rsatishning tanlangan slaydini ko'rsatishni boshlash imkonini beradi.

Erkin ko'rsatishni boshqarish

Agar erkin ko'rsatishni ishga tushurish taqdimotning bitta slaydidagi boshqarish tugmasini yoki istalgan ob'yekti bilan bog'langan namoyish ancha dinamik bo'la boradi. Erkin ko'rsatishga **harakatni sozlash (slaydlarni ko'rsatish menyusi)** muloqot darchasidan yoki **giperishorani qo'shish** (kiritish menyusi)dan (32-rasm) foydalanib o'tish mumkin.

Taqdimot paytida sichqonchaning o'ng tugmasini cherting va kontekst menyusidan avval **o'tish** buyrug'ini, keyin **erkin ko'rsatish** bandini tanlang, yakunida esa erkin ko'rsatishni talab qilgan nomini bering. Erkin ko'rsatishga kiruvchi slaydlar joriy taqdimotning qismlari bo'lishi lozim. Bu ob'ektning ustini chertib ma'ruzachi mini taqdimotni bevosita ko'rsatish jarayonida ishga tushirishi mumkin.

Buni sinab ko'rish uchun:

1. ob'ekt (tugma, rasm yoki maket)ni ajrating va **harakatni sozlash** buyrug'ini faollashtiring.

2. **Giper ishora bo'yicha o'tish** ro'yxatida **erkin ko'rsatish** ifodasini o'rnating.

3. OK tugmasi bosilganidan so'ng ochiladigan **erkin ko'rsatish bilan bog'lansin** darchasida (33-rasm) erkin ko'rsatishning nomini tanlash.

Erkin ko'rsatishlarni ishga tushirish uchun mo'ljallangan bir nechta tugmani bitta slaydga joylashtirib ma'ruzachi taqdimotni kerakli o'zakga yo'naltirish imkonini qo'lga kiritadi. Foydalanuvchi taqdimotni ko'rsatish davomida kerakli erkin ko'rsatishni, shuningdek, kontekst menyusi yordamida ham tanlab olishi mumkin.

Amaliy ko'nikmalarni hosil qilishni davom ettirib:

1. taqdimot paytida istalgan slaydni sichqonchaning o'ng tugmachasi bilan cherting. Kontekst menyusidagi **o'tish** buyrug'ini faollashtiring;

2. **o'tish** ostki menyusidan **Erkin ko'rsatish** buyrugini tanlang va kerakli mini taqdimotning nomini ko'rsating.

Vaqtni to'g'rilash

Taqdimotni namoyish qilish paytida ma'ruzachi slayddan slaydga o'tishni o'zi boshqarishi yoki bu ishni dasturga topshirish mumkin. Navbatdagi slaydga o'tish avtomatik ravishda bajarilishi uchun **slaydlarni almashtirish** va **renetatsiya** muloqot darchalarida har bir slaydni ko'rsatish vaqtini (soniyalarda) belgilab topshiriq berish kerak.

Amaliyotni davom ettirib:

1. slaydlar rejimida yoki saralovchining rejimida namoyishning davomiyligi ular uchun belgilanayotgan slaydlarni ajrating;

2. **slaydlarni ko'rsatish** menyusidan **slaydning o'tishi** buyrug'ini tanlang;

3. **harakatlantirish** sohasida **keyin avtomatik ravishda** opsiyasini o'rnatib. So'ngra slaydlarni ko'rsatish qancha davom etishi lozimligini soniyalarda ko'rsating;

4. ushbu ko'rsatmaning ta'siri faqat ajratilgan slaydlarga tatbiq etilishi uchun **qo'llanilsin** tugmasini bosing. Agarda ushbu ko'rsatma taqdimotning hamma slaydlariga taalluqli bo'lsa, hammasiga **qo'llanilsin** tugmasini bosing;

5. vaqt intervalini yaxshi tanlaganingizga amin bo'ling. Buning uchun slaydlarni ko'rsatish tugmasini bosing.

Vaqt intervallari (oraliqlari)ni tanlashning boshqa usuli – ma'ruzani repetitsiya qilishdir. Uni o'tkazish uchun Power Point repetitsiya vaqtida u yoki bu slaydni ko'rsatish qancha vaqt davom etganini avtomatik ravishda yozib boruvchi maxsus uskunalar ko'zda tutilgan. Repetitsiya davomida slaydlarni badiiy bezalishini tekshirib ko'rish va xabarlar tayyorlash mumkin.

Taqdimotni ishga tushirish

Taqdimotni ishga tushirishning uchta usuli mavjud. Ularni amalda sinab ko'rish uchun:

1. Taqdimot darchasining pastki chap burchagida joylashgan slaydlarni ko'rsatish tugmasini bosing.

2. Slaydlarni ko'rsatish menyusidagi ko'rsatish buyrug'ini faollashtiring.

3. Tur menyusidagi slaydlarni ko'rsatish buyrug'ini faollashtiring.

Agar slaydlarni qo'lda almashtirish rejimi o'rnatilgan bo'lsa, bir slayddan boshqasiga o'tish uchun bitta chertishning o'zi kifoya. Teskari yo'nalishda o'tish kontekst menyusining **orqaga** buyrug'i yordamida amalga oshiriladi.

Slaydlarni almashtirishni boshqarishga, shuningdek, [Page Down], [pastga strelka], [o'nga strelka], (navbatdagi slaydga o'tish); [PageUp], [yuqoriga strelka], [chapga strelka] (avvalgi faylga o'tish) tugmachalari mo'ljallangan Esc tugmachasini bosish taqdimotni ko'rsatishni to'xtatadi. Taqdimotlarni boshqarishning eng yaxshi vositasi slaydning kontekst menyusidir.

Kontekst menyusining buyruqlari taqdimotning istalgan slaydiga (**keyin, orqaga, o'tish**) o'tish, ko'rsatishni to'xtatish yoki slaydning ichidagilarni yashirish (ekran ostki menyusining **pauza** va **qora** ekran buyruqlari), taqdimotni yaxshilash (**slaydlarni ko'rsatish** tugallansin buyrug'i) va slaydlarda va yon daftarcha xabarlar va belgilar yozish (tuzish) imkoniyatlarini taqdim etadi.

Taqdimotni boshqarishning hamma buyruqlari bilan topishish uchun slaydning kontekst menyusining ma'lumotnoma buyrug'ini (35-rasm) tanlang

Taqdimotni Internet uchun tayyorlash

Tuzilgan istalgan taqdimotni siz Internet tarmog'ida ko'rib chiqish uchun formatda saqlab qo'yishingiz mumkin. Taqdimotning Web-brouzer darchasida siz amin bo'lish uchun, chop etishdan avval **fayl** menyusining **Web-sahifani oldindan ko'rib chiqish** buyrug'ini chaqiring (ishga tushuring).

1. Internet tarmog'ida chop etish talab qilinadigan taqdimotni tayyorlang;
2. **Fayl** menyusidan **Web-sahifa sifatida saqlansin** buyrug'ini (38-rasm) tanlang.

1. **Faylning nomi** maydoniga Web-sahifasini kiriting, papkalar ro'yxatidan esa unda Web-sahifa saqlanishi talab qilingan papkani tanlang.

2. Web-sahifaning sarlavhasini (brouzerning sarlavhasi qatorida aks ettiriladigan matnni) o'zgartirish uchun **o'zgartirilsin** tugmasini bosib, **sarlavha** maydoniga yangi sarlavha kiriting va OK tugmasini bosib;

3. **chop etilsin** tugmasini bosib;

4. ochilgan Web-sahifani chop etish darchasida talab etilgan parametrlarni bering;

5. Web-sahifani formatlashtirilishning va aks ettirilishining qo'shimcha parametrlarini o'rnatish uchun **Web parametrlari** tugmasini bosib, talab etilgan parametrlarni o'rnatib va OK tugmasini (31-rasm) bosib.

1. **Web-sahifasining chop etish** darchasida **chop etilsin** tugmasini bosib.

Taqdimot fayli bilan (.htm kengayishi bilan) bir vaqtda taqdimotni brauzer darchasida ko'rsatish uchun zarur bo'lgan hamma fayllar yoziladigan xuddi shu nomli va files kengayishli papka ham tuziladi. Taqdimotni ko'rib chiqish uchun uni brouzer darchasida ochish kerak. Taqdimotni ko'rsatishni boshqarish brouzer darchasining pastki qismida joylashgan tugmalar yordamida amalga oshiriladi.

Taqdimotni to'g'ridan-to'g'ri uzatish

Agar taqdimotni uzatishni oqim videosini yoki audiosini qo'llab o'tkazish talab qilinsa, kompyuterga amal qilgan holda videokamera yoki mikrofonni ulash zarur bo'ladi.

Buni amalda sinab ko'rish uchun:

Uzatilishi talab qilinayotgan taqdimotni oching;

Quyidagi harakatlardan birini bajaring.

Uzatishning boshlanishi

Slaydlarni ko'rsatish menyusidan **to'g'ridan-to'g'ri uzatish** buyrug'ini, keyin esa **uzatish** boshlansin bandini tanlang.

So'rovga javob tariqasida uzatish buyrug'ini tanlang.

Odatdagi taqdimotni uzatish muloqot darchasiga (40-rasm) hamma o'zgarishlarni kiriting. Bu ma'lumotlar uzatishning asosiy sahifasida aks ettiriladi. Asosiy sahifa namoyish boshlanmasdan oldin uzatish haqida Websharhlovchisida aks ettiriladigan ma'lumotlar bo'lgan sahifadir. Asosiy sahifada uzatishning sarlavhasi mavzuni, shuningdek, uzatish boshlangunicha qolgan vaqt to'grisidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

2. parametrlar tugmasini bosib;

3. ma'ruzachi qo'shimchasida uzatish fayllari saqlansin maydoniga faylning joylanishini kiriting.

Zarurat tug'ilganida **tovush** va **video** muloqot darchasi sohasida ovoz va videoning parametrini o'zgartiring.

Yo'riqnomalar.

Agar ovoz va videotasvirni uzatish imkonidan foydalanish talab qilinsa **Video va tovush** variantini tanlang.

Agar faqat ovozni ishlatish talab qilinsa, **faqat tovush** variantini tanlang.

Agar tovush va video imkoniyatlaridan foydalanish talab qilinmasa **yo'q** variantini tanlang.

Uzatish parametrlarini saqlab qolish uchun OK tugmasini bosing.

Uzatishga tinglovchilarni taklif qilish uchun tinglovchilar taklif qilinsin tugmasini cherting. Bunday qilinganida elektron pochtaning ilovasi (masalan, Microsoft Outlook) ishga tushadi va elektron pochtaning taqdimot haqidagi ma'lumotlari bo'lgan xabari aks ettiriladi.

Bunga amin bo'lish uchun quyidagi harakatlarni birini bajaring.

Microsoft Outlook ilovasi mavjud bo'lganida uni tarmoqdagi majlisga xuddi odatdagi majlis uchun mo'ljallanganidek taklifnomalar yaratish uchun ishlating qo'shimcha ma'lumotlar Outlook ma'lumotnomasida bor.

Agar boshqa dastur ishlatilayotgan bo'lsa, xabarga uzatish sanasi va vaqtni, shuningdek, taqdimotning to'g'ridan to'g'ri uzatilish manzilini kiriting.

Bayon qilingan uzatish jarayoni uncha katta bo'lmagan auditoriya (shu bilan bir vaqtning o'zida 10 kishidan kam bo'lmagan)ga nisbatan qo'llaniladi.

Katta auditoriya uchun uzatish haqida qo'shimcha ma'lumotlarni Mikrosoft Office XP Resource Kit web tarmog'idan topish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Taqdimotni boshqa kompyuterda ko'rsatishga tayyorlash
2. Taqdimotni chop etish
3. Elektron taqdimot
4. Taqdimotni ishga tushirish
5. Taqdimotni Internet uchun tayyorlash
6. Taqdimotni to'g'ridan-to'g'ri uzatish
7. Uzatishning boshlanishi

Darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy

1. Nadejdin O. Osnovy kompyuternoy animatsii: monografiya/ O. Nadejdin. -M.: Mayor, 2004. -416 s.
2. Blinova T. A. Kompyuternaya grafika : uchebnoye posobiye/ T. A. Blinova, Pod red. V. N. Poreva. -K.; SPb.; K.: YUnior;" Korona-PRINT"; "Vek+", 2006. -520 s.
3. Melnichenko V. V. Kompyuternaya grafika i ne tolko... : Rukovodstvo polzovatelya/ V. V. Melnichenko, V. V. Legeyda. -Kiyev; SPb.; Kiyev: VEK+; "Korona print"; "NTI", 2005. -560 s.
4. Popov V. B. Osnovy informatsionnykh i telekommunikatsionnykh texnologiy: Ucheb. posobiye dlya uchashixsya sred. prof. zavedeniy/ V. B. Popov. -M. : Finansy i statistika. -2005 Kn. 6 : Vvedeniye v kompyuternuyu grafiku. -2005. -128 s.
5. Porev, Viktor Kompyuternaya grafika : monografiya/ V. Porev. -SPb.: BXV-Peterburg, 2005. -432 s.
6. Broydo V.L. "Вычислительные системы, сети и телекоммуникации", izdatelstvo "Piter" 2002
7. Kirmayer M. "Mul'timedia", izdatel'stvo "BHV – Sankt - Peterburg" 1994 u.
8. N.V.Makarova i dr. Infaormatika. / Pod red/ N.V.Makarovoy/ M.: Finansi i statistika, 2003g. 768 s.
9. Martin Fauler. Arxitektura korporativnix programmnix prilozheniy. M.: "Vil'yams", 2004 -544s
10. A.P. Pyatibratov i dr. Вычислительные системы, сети и телекоммуникации. M.: Finansi i statistika, 2001, 512 s

Qo'shimcha

1. S. Novoseltsev "Multimedia — sintez trex stixiy". Kompyuter–Press, 7'91.
2. V. Dyakonov "Multimedia–PK". Domashniy Kompyuter, 1'96.
3. "Звуковые платы" — po materialam zarubejnoy pressy, Copmuter Review, 7'96
4. Materialy servera IXBT: <http://www.ixbt.ru>
5. Materialy firm Adaptec, Sony, IBM, Microsoft, Mitsumi, a takje CD-R FAQ
Andy McFadden
6. Sredstva mul'timedia "Komp'yuter press", yanvar 1998

7. Mul'timediynie texnologii "Komp'yuter press", mart 1999
8. Chto takoe mul'timedia? "Komp'yuter press", yanvar 2001

Internet ma'lumotlari

1. <http://www.sec.samsung.co.kr>
2. <http://www.hard&soft.ru>
3. <http://www.cpress.ru/>
4. www.3Dnews.ru

№	Ma'ruza mavzulari	Saxifa beti
1.	Kirish. Multimedia tizimlari va texnologiyalari. Asosiy tushunchalar.	
2.	Multimedia texnologiyalarining imkoniyatlari va muhim xususiyatlari	
3.	Ovoz platalari. Akustik tizimlar.	
4.	Ovozlarni sintezlash metodlari. Ovoz saqlash fayllari.	
5.	Videoplatalar va videoakseleratorlar.	
6.	Videoterminal qurilmalar.	
7.	Printerlarni asosiy turlari.	
8.	Skannerlarning asosiy turlari.	
9.	Katta xajmli tashqi xotira qurilmalari	
10.	Korporativ muxitda multimedia. JPEG, MPEG-1, MPEG-2, MPEG-3, MPEG-4 standartlar	
11.	Audiokonferentsiyalar va videokonferentsiyalar.	
12.	Prezentatsiya yaratish uchun MS PowerPoint dasturi.	
13.	Multimediada Macromedia FlashMX ni qo'llash.	
14.	CorelDraw amaliy dastur paketi	
15.	Grafik tasvirlarni qayta ishlovchi Photoshop dasturi.	
16.	3D MAX imkoniyatlari va xususiyatlari.	
17.	Adabiyotlar	

ТОШКЕНТ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ УНИВЕРСИТЕТИ
УРГАНЧ ФИЛИАЛИ

«Ахборот технологиялари» кафедраси

« МУЛТИМЕДИА ТИЗИМЛАРИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ » фанидан

ЛАБОРАТОРИЯ ИШЛАРИ НИ
бажариш учун услубий кўрсатма


Сизга тавсия этилаётган «Мултимедиа тизимлари ва технологиялари сервиси» курси бўйича ушбу лаборатория ишлари тасдиқланган намунавий дастур асосида ёзилган.

Лаборатория иши №1

Мавзу: MS PowerPoint ёрдамида презентация яратиш.


Ишдан мақсад: MS PowerPoint ёрдамида презентация яратишни ўрганиш.

Назарий қисм: Power Point Microsoft Offисининг таркибидаги презентация тайёрлашга мўлжалланган дастурдир. Презентация ихтиёрий сондаги слайдлар яратиш имконини беради. Слайдлар презентациянинг алоҳида бир бўлими бўлиб, компьютернинг битта тўлик экранига мос келади. Power Point ни юклаш учун «Пуск» тугмачаси босилади, унда «Программы» менюсида Microsoft Power Point танланади ва «сичконча» билан 2 маротаба туртилади (ёки Enter босилади). Экранда Power Point нинг янги презентация яратиш мулоқот ойнаси пайдо бўлади (расм 3.8 - Power Point нинг дастлабки мулоқат ойнаси). Бунда презентацияни мастер презентациялари («Мастер автосодержания») оркали, шаблон («Шаблон презентации») асосида ёки бўш презентациялар оркали («Пустую презентацию»), олдиндан яратилган презентацияни очиш («Открыть презентацию») оркали яратиш мумкин.



Расм 3.8. Power Point нинг дастлабки мулоқот ойнаси.

Power Point ойнасининг асосий элементлари расм 3.9 да келтирилган ва элементлар номлари курсатилган.



Расм 3.10. Power Point ойнасининг асосий элементлари

Меню катори. Microsoft Office нинг бошқа дастурлари каби Power Point да ҳам «Файл», «Окно» ва «?» стандарт менюлари мавжуд. Power Point менюлар номлари ва қисқача тавсифларини келтирамиз.

Файл (File) - Файлларни яратиш, сақлаш, очиш ва номини узгартирган ҳолда сақлаш, чоп этиш ва ҳ.клар, дастурдан чиқиш қисм менюлари бор. Правка(Edit) - Одатдаги буйруқлар «Отменить»(охирги ҳаракатни инкор этиш), «Вырезать»(Windows буфер хотирасига нусхаси қолмаган тарзда қирқиб олиш), «Копировать »(Windows буфер хотирасига нусхасини олиш), «Вставить»(Windows буфер хотирасига олинган объект ёки матнни қуйиш) ва бошқа қуйиш, қидириш, алмаштириш буйруқлари мавжуд.

Вид(View) - Бунда айрим инструментлар панели, линейка ва бошқа курунишларни бошқариш буйруқлари бор.

Вставка(Insert) – Презентацияга турли элементларни қуйиш буйруқлари бор. Формат(Format)-Форматлашнинг барча бошқариш буйруқлари. Масалан: шрифт, тугрилаш, интервал, ранг, соя ва ҳ.клар. Сервис(Tools) - Сервис буйруқлар , масалан: орфография ва ҳ.к стандарт буйруқлар, махсус Power Point учун анимация эффектлари, слайдлар алмашиниши ва бошқа буйруқлар.

Рисунок(Draw)-Презентацияда объектни манипуляция (бошқариш) буйруқлари, бунга объектларни гуруҳлаш, буриш, масштаблаш ва ҳ.клар қиради Презентацияда объектни манипуляция(бошқариш) буйруқлари, бунга объектларни гуруҳлаш, буриш, масштаблаш ва ҳ.клар қиради

Окно(Window) - Стандарт «окно» менюси буйруқлари ва махсус « По странице» буйруги варақма-варақ барча очилган презентацияларни қуриш имконини беради.

?(Help) - Стандарт ёрдам буйруқларидан иборат.

“Показ слайдов” менюсида слайдларнинг анимацияси, слайдларнинг алмашиниши, слайдларни намойиш қилиш ишлари ва бошқа слайдлар устида амаллар бажариш мумкин. Булардан :

Эффекты анимации – презентацияни демонстрация қилишда анимация эффектлари берилади .

«Применить шаблон дизайна» – танланган шаблон дизайнини презентацияга қўлаш. Настройка

анимации қисм менюси орқали матнлар, объектларни фойдаланувчи хоҳлаган тартибда, яъни Power Point даги яратилган тартибда экранга чиқаради

Назорат саволлари:

1. Microsoft PowerPoint дастурини ишга тушириш?
2. Шаблонлардан фойдаланиб презентация ҳосил қилиш?
3. Слайдга расм қўйиш?
4. Ҳосил қилинган презентацияни намойиш қилиш?

Ишни бажариш учун топшириқлар(қуйидаги мавзуларга презентация яратинг)

1. Multimediyali kompyuter
2. Ovozli ma`lumotlarni saqlash formatlari
3. Ovoz platalarini qo'llash sohalari
4. Ovozlarni yozish va eshittirish sifati
5. Mp3 va wav fayllar
6. MIDI fayllar
7. Ovoz kartasini baholash parametrlari
8. Video tasvirlar bilan ishlash muammolari
9. Grafik platalar
10. Video standartlar
11. Video adapterni ishlash prinsipi
12. Monitorlar
13. LCD monitorlar
14. Monitorlarning asosiy parametrlari
15. Skanerlar
16. Printerlar
17. Lazer printerni ishlash prinsipi
18. Multimediyani yaratish vositalari
19. Video tizimni tarkibiy qismlari

Адабиётлар

1. A. Ahmedov, N. Taylaqov "Informatika"
2. A. Sattarov "Informatika va axborot texnologiyalari"
3. O'. Sh. Gadoyboyev, B. R. Karimov, K. M. Yo'ldashev "Kompyuter savodxonligi asoslari" (2)

4. Taylaqov N. I “Ehm ishlari va hisob usuli”

M. Aripov, A. Haydarov “Informatika

Лаборатория иши № 2


Мавзу: Амалий дастур пакети Flash MX ёрдамида мултимедиа технологиялари фани бўйича презентация яратиш

Ишдан мақсад: Амалий дастур пакети Flash MX ёрдамида мултимедиа технологиялари фани бўйича презентация яратишни ўрганиш.

Назарий қисм: Бу программа Macromedia компанияси томонидан ишлаб чиқарилган бўлиб, web дизайн элементларининг асосий қисми ҳисобланади. Бу программа ёрдамида кичик ҳажмли анимациялар яратиш мумкин. Бу дастурнинг асосий хусусиятлари қуйидагича.

- Пайдо буладиган файл кичик ҳажмга эга булади ва тармоқда тез юкланади. Flash вектор форматли тасвирларни ва сикилган растр файилларни ишлатади, шунинг учун саҳифанинг юкланиш вақти ва ҳажми камаяди.
- Барча турдаги браузерларда ҳам бир хил ишлайди. HTML дан фарқли уларок бу программа IE ва NN да бир хил ишлайди.
- Ҳолатни бошқариш тили. Flash да саҳифа учун “интеллект” яратувчи махсус тил мавжуд. Дастурлаш тилида шарт оператори, цикллар, массивлар, функция ва класслар ишлатилади.
- Дастурдан фойдаланишнинг жуда қулайлиги осон урганилади.
- Дастур жуда кенг тарқалган. Катта интерактивлик, аниматция, овоз, графика ва кичик размер олишда Flash дан яқшироқ дастур йук.

Бу дастур WINDOWS 95/98/NT/2000 операцион системалари остида ишлай олади. Бу дастур урнатилиб ишга туширилгач қуйидаги ойна экранга чиқади.



Дастурнинг юкори кисмида куйидаги менюлар мавжуд:

- File
- Edit
- View
- Insert
- Modify
- Text
- Control
- Window
- Help

Чапда асбоблар панели, унга эса ранг, матн, инструментлар, кадрлар ва объектларни созлаш ойналари ва уртада ишчи область, унинг тепасида эса вақт шкаласи (Timeline) жойлашган. У дастур ёрдамида ҳосил қилинадиган файл (анимация) .fla кенгайтмага эга бўлади, сунгра .swf кенгайтмали файлга трансляция қилинади. Шундан кейин бу аниматцияни браузерда куриш, HTML матнига қуйиш мумкин.


Анимация бу – турли тасвирлар (кадрлар) нинг кетма-кет алмашишидир. Бунинг натижасида ҳаракатланиш юзага келади. Flash да анимация қилишнинг 2 та усули мавжуд:

1. ҳар бир кадрни ҳосил қилиб Flash ёрдамида тасвирни тез-тез варақлаш мумкин.
2. Flash ёрдамида оралик кадрларни автоматик тарзда яратиш мумкин.

Бу ҳолларни мисолда куриб чиксак.

Айтайлик, яшил рангли квадратни экраннинг чап қисмидан унғ томонига силжитиш зарур ва буни 25 кадр билан амалга ошириш зарур. 1инчи кадрма-кадр анимация ҳосил қилиш усулида ҳар бир кадрда квадратни оз-оздан суриб 25 та кадр ҳосил қилишимиз зарур. Агар квадрат унғга силжиши давомида секингина йуқолиб кетиши керак бўлсачи? Унда ҳар бир кадрда шаффофлик атрибутини ошириб чиқамизми? Асло, бунинг учун 2-усулдан фойдаланган афзал. Бунда фақат биз қалит кадр (keyframe) ларни беришимиз мумкин. Оралик кадрларни программанинг узи автоматик тарзда узи ишлаб чиқади.

Вақт шкаласи. Бунда слой (алоҳида бир тасвир) лар ҳақида маълумотлар, қайси кадр қалит кадр эканлиги, қайсиларини эса дастурнинг узи ҳосил қилганлиги ҳақида маълумот ақс этади.



Маркер – жорий кадрни курсатади. Истаган кадрни босиб маркерни кучириш мумкин.

Слой – слойлар руйхати устида махсус тугмалар, кушимча срой кушиш еки учириб ташлаш тугмалари мавжуд.

Кадрлар шкаласи – оддий ва калит кдарларни кушиш еки олиб ташланади-ган майдон. Сичкончани унг томонини босиб, контекстли менюдан кадр устида кандай амал бажариш мумкинлигини куриш мумкин.


Слойлар.

Компьютер графикасида бу инструмент куп кулланилади. Тасаввур килинг, сиз шаффоф саҳифага тавсирларни чизиб, уларни устма-уст тахладингиз. Устки турган слой тагидаги слойларни беркитиб туради. Слойларни куринмас ва узгартириб булмайдиган килиш мумкин. Слойларнинг 2 та асосий типи мавжуд: харакат троекториясини ифодаляйдиган слой ва слой-маскалар.

Кадрма-кадр анимациялар.

Бу анимация калит кадрлардан ташкил топади. Бунда хар бир кдар таркиби ва давомийлигини узингиз аниклайсиз.

Здесь изображение не меняется



Афзаллиги

- Бу типдаги анимация устида кучли назорат урнатилади.
- Бир-бирига умуман боглик булмаган кадрларни алмашишини ташкил этишнинг ягона усули – слайд-шоу.
- Хар 1 кадрни алоҳида ишлаб чиқиш мумкин.

Камчилиги.

- Бу турдаги анимация кийин хосил булади.

- Бундай анимация хотирада катта хажмни эгалайди.

Оралик кадрли анимация(tweened motion).

Бунда сиз факат калит кадрни беришингиз мумкин. Оралик кадрни дастур автомат тарзда узи тузиб олади. Бунда даслабки кадрдаги объектни чизиб кейинги кадрда унга узгартириш берилади. Flash нинг узи оралик кадрларни хисоблаб чиқади. Анимацияни тезлиги кадрлар сонига боглик. Тезликни Modify-Movie командаси оркали бериш мумкин, унда Frame Rate параметри 1 секундаги кадрлар сонини белгилайди. Сифатли анимация учун тезлик секундига 25-30 кадрдан кам булмаслиги керак. Flash да оралик тасвирни куруниши 2та варианты мавжуд: motion tweening(символ модификацияси оркали анимация яратиш);


shape tweening(форманинг узгариши оркали анимация яратиш).

Бу усуллар асоси билан фаркланади.


Shape tweening

Айтайлик сизга квадрат айланага айланиши ёки куёнча бури сюжетига айланиб колиши керак булди. Бу холларда shape tweeningдан фойдаланилади.

Одатдагидек, бир-биридан масофада жойлашган 2та калит кадр берилади. Бу вариантда анимацияни муайян каттик чекланишлари мавжуд: бунда сизнинг анимациянгиз алохида слой булиши ва алохида факат узи чизилган фигура булиши(фигуралар гурухи ёки символлар булмаслиги) керак. 2та калит кадрга эга булгандан кейин 1-сини активлаштирамиз ва Frame панелидаги Tweening руйхатидан Shape ни танланг



Вакт шкаласидаги кадрлар яшил рангга буялади ва 1-кадрдан 2-кадрга стрелка йуналади.




Натижада бир канча оралик кадрларга эга булаемиз. Бу кичик анимацияда айлана ярим ой шаклига айланади. 1-калит кадрда айлана чизилади. 2-калит кадрда эса яримой шакли чизилади.

Ва, нихоят Shape tweening анимацияда охириги инструмент – бу контрол нукталар. Бу нукталар оркали Flash га кадрлар тугри утишни хосил килишида ердан берасиз. 1-калит кадрда

(анимация бошланадиган) контрол нукта урнатилади. (Modify-Transform-Add shape hint). Сценада кичкина кизил нукта пайдо булади. Барча нукталарни Modify-Transform-Remove All hints командаси билан учуриш мумкин. Куйидаги расмларда контрол нукта билан яратилган ва контрол нуктасиз яратилган кадрладаги фаркни куришингиз мумкин.

Shape Tweening – контрол нукталарсиз.



Shape Tweening – контрол нукталардан фойдаланилган.




Motion Tweening.

Бунда анимациялар символлар модификацияси асосида яратилади. Вакт бирлигида хар бир объект учун битти слой зарур. Бу слойда узгартиришлар килинадиган 1 та символ жойлаштирилади. Motion Tweening дан фойдаланилганда символнинг куйидаги параметрларига эътибор берилади:

- размер(эни буйига пропорционал еки непропорционал);
- наклон;
- жойлашуви;
- бурилиш бурчаги;
- ранг эффектлар;

Бошлангич кадрни активлаштириб, Insert-Create motion tweening командаси берилади. Motion Tweening ни хосил килиш еки уни рад килиш Frame панели ердамида, Tweening майдонида Motion ни танлаш оркали бажарилади. У ерда анимация параметрларини бошқариш хам мумкин.



Easing – тескари экспоненциал тезланиш;

Rotate – айланишни бошқариш;


Auto – бунда Flash виткалар сонини автоматик аниклашга уринади.

CW(Clockwise – соат стрелкаси буйича) ва CCW(Counter Clockwise – соат стрелкасига карши). Бу майдоннинг унг томонида айлантириш сонини киритиш имконияти мавжуд.


Orient to path – йуналтирувчи линия буйича символни буради.

Дастурда кичик анимация куришни урганамиз. Бунинг учун бизга асбоблар панелидаги “овал”  ва “выделение”  инструментлари керак булади. Куйидаги амалларни керма-кет бажарамиз.


1. «Овал» инструментини танлаймиз ва сахнанинг чап томонида айлана еки овал чизиб оламиз.
2. «Выделение» инструменти оркали овални белгилаб оламиз.
3. Insert менюсига кириб, Convert to symbol командасини танланг ва куйидаги пайдо булган дарчадан Graphic пунктини танлаб ОК тугмасини босамиз.



4. Энди юкоридаги вақт шкаласидаги 25-кадрни танлаб, Insert – Keyframe командасини босамиз. Бунда 25-кадр «калит кадр» га айланади.



5. Овални белгилаб олиб, ишчи столнинг унг қисмига кучирамиз.
6. Вақт шкаласидан 1-кадрга қайтамиз. Бунда фигуранинг олдинги ҳолатига қайтганини куриш мумкин. Insert-Create Motion tween командасини танлаймиз.
7. Control-Playкомандаси еки Enter тугмасини босиб натижани куриш мумкин. Келинг бу анимацияга яна ниманидир кушамиз. Яна 25-кадрни танлаймиз ва фигурани белгилаймиз. Effect (унгда) панелидаги пастки тушувчи руйхатдан Alpha (шаффофлик) ни, ҳосил булаган параметрни 0% га туширинг.



Фильмни қайта куриш. Flash да факат «калит кадр» ларни бериш кифоя. Дастур узи оралик кадрларни ишлаб чиқади.

8. Энди бу ижодни .swf файлга трансляция қилиш керак ва HTML га куйиш зарур. Шунда уни браузер оркали куриш мумкин. Бунинг учун File менюсига кириб, Publish командасини бериш керак.

**Ишни бажариш учун топшириқлар(қуйидаги мавзуларга презентация
яратинг)**

1. Multimediyali kompyuter
2. Ovozli ma'lumotlarni saqlash formatlari
3. Ovoz platalarini qo'llash sohalari
4. Ovozlarni yozish va eshittirish sifati
5. Mp3 va wav fayllar
6. MIDI fayllar
7. Ovoz kartasini baholash parametrlari
8. Video tasvirlar bilan ishlash muammolari
9. Grafik platalar
10. Video standartlar
11. Video adapterni ishlash prinspi
12. Monitorlar
13. LCD monitorlar
14. Monitorlarning asosiy parametrlari
15. Skanerlar
16. Printerlar
17. Lazer printerni ishlash prinspi
18. Multimediyani yaratish vositalari
19. Video tizimni tarkibiy qismlari

Назорат саволлар.

1. Калит кадр нима?
2. Анимация, слой, вакт шкаласи тушунчаларини тушунтириб беринг.
3. Анимация яратишининг турларини тушунтириб беринг: уларнинг камчилик ва афзалликлари?

Фойдаланилган адабиетлар.

1. www.referat.ru
2. www.flash.ru
3. Macromedia Flash. Питер-сом. В.Холмогоров. Москва 2003 йил.
4. Изучаем Macromedia Flash. Питер-сом. В.Холмогоров. Москва 2002 йил.

Лаборатория иши №3

Мавзу: Photoshop ёрдамида тасвирларни қайта ишлаш

Ишдан мақсад: Талабада Photoshop график редактори тўғрисида билимларни шакллантириш.


Назарий қисм:

ADOBE PHOTOSHOP Windows муҳитида ишловчи компьютерлар учун мўлжалланган электрон кўринишдаги фототасвирларни ташрир қилувчи дастурдир.

Adobe Photoshop тасвир ташрир қилувчиси ёрдамида фотосуратларга қўшимча киритиш, фотосуратдаги доғларни ўчириш ва эски расмларни қайта ишлаш ва тиклаш, расмларга

матн киритиш, қўшимча махсус эффектлар билан бойитиш, бир фотосуратдаги элементларни ўзгартириш, алмаштириш мумкин. Adobe Photoshop имкониятлари кенг қамровли бўлиб, китоблар, газета ва журналларни турли-туман расмлар билан бойитишда катта қулайликлар яратади.

Adobe Photoshop айниқса журналистларнинг, рассомларнинг ижодий имкониятларини тўла амалга оширишларида ёрдам беради. Журналистика ва бевосита матбуот ёки нашриёт соҳасига алоқодор бўлган шахсларнинг мазкур дастур билан ишлашни билиши улар учун қўшимча имкониятларни яратиб беради.




босилади.

чап тугмаси икки марта босилади.

Дастуридан чиқиш учун қуйидаги усулларни биридан фойдаланиш мумкин:

1. **Alt + F4** тугмаларини биргаликда босиш.
2. **Файл** менюсидаги **Выход** буйруғини танлаш билан.
3. Экраннинг юқори қисми ўнг бурчагида жойлашган белгисини босиш ёки **Закрывать** буйруғини бажариш билан.



Саволларга қуйдагича жавоб бериш зарур:

ДА – киритилган матни ўзгаришларни сақлаш ва дастуридан чиқиш учун.

НЕТ – киртилган матнда ўзгартиришлар сақланмаган холда дастуридан чиқиш учун.

Отмена - дастурда ишлашни давом эттириш учун.

Adobe Photoshop дастури ишга туширилгандан сўнг экранда Adobe Photoshop тасвир тащир килувчи ойнаси щосил бўлади.

Adobe Photoshop ойнасининг юкори қисмида сарлавща сатр ва Windows га хос элементлар жойлашади. Сарлавща сатридан сўнг меню сатри жойлашади. Менюдаги керакли буйруқларни танлашингиз мумкин.

Adobe Photoshop дастури менюси 9 банддан иборат. Щар бир меню таркибида очиладиган меню банддлари мавжуд. Уларни кўриш курсор ёрдамида амалга оширишлади. қуйида асосий меню ва энг кўп қўлланиладиган буйруқларнинг қисқача тавсифи келтирилади.

ФАЙЛ менюси қуйидаги буйруқлардан иборат:

Новые (Ctrl+N)	Янги файл яратиш.
Откыть(Ctrl+O)	Бу буйруқ ёрдамида дискда мавжуд файллар очилади.
Открыть как (Alt+Ctrl+O)	Файлни қандай кўринишда очишни танлаш.
Сохранить (Shift+S)	Файлга ном бериш
Сохранить как	Файлни хотирага бошқа ном билан (Shift+Ctrl+S)
сақлаш	
Сохранить Копию (Alt+Ctrl+S)	Тасвир нусхасини хотирага сақлаш.
Вернуть	Тасвирнинг дастлабки холатига қайтиш.
Поместить	Бошқа мустақил файл билан бирлаштириш.
Импорт	Бошқа директорияда жойлашган файлни Adobe Photoshop дастурига олиб кириш.
Экспорт	Тасвирни бошқа даструларга жўнатиш.
Файл информация	Файл щақидаги маълумотларни киритиш.
Установка страниц	Очилган файлдаги бетини шаклини (Shift+Ctrl+P)
танлаш.	
Печать (Ctrl+P)	Тасвирни принтерга жўнатиш.
Предпочтения	Adobe Photoshop дастурини керакли тартибда созлаш.
Настройка цвета	Тасвир рангларини созлаш.
Adobe online	Интернет билан боғланиш.
Вўход (Ctrl+Q)	Дастуридан чиқиш.

Правка менюси қуйидаги буйруқлардан иборат:

Вернут (Ctrl+Z)	Тасвир устида бажарилган охирги амални бекор қилиш.
-----------------	---

Резать (Ctrl+X)	Тасвирнинг ажратилган қисмини қирқиб олиш ва керакли жойга қўйиш ёки бутунлай қирқиб ташлаш.
Копировать (Ctrl+C)	Тасвирни белгиланган қисмини нусхага олиш.
Вставить (Ctrl-V)	Хотирага олинган тасвирни белгиланган жойга қўйиш.
Вставить В (Shift+Ctrl+V)	Тасвирда белгиланган майдонни тозалаш, ўчириш.
Очистить	Бунда ўчирилган майдон фон рангига бўялади.
Залить	Тасвир юзини ранг билан бўяш.
Штрих	Тасвирда белгиланган майдонни штрихлаб кўрсатиш.
Трансформация (Ctrl+T)	Тасвир шаклини ўзгартириш.
Трансформ	Тасвир шаклини турли кўринишларда ўзгартириш.
Очистка	История дарчасида тасвир олиб борилган ўзгартириш амалларини бутунлай ўчириш. Бу амал бажарилгандан сўнг ўзгартириш-ларни ортга қайтариш мумкин эмас.

ИЗОБРАЖЕНИЯ менюси қуйидаги буйруқлардан иборат:

Режим	Ранг моделларни ўзгартириш.
Настройка	Тасвир рангларини созлаш.
Дубликат	Тасвирдан нусха олиш.
Наложить изображение	Тасвирни қўшимча ранглар билан бойитиш.
Вўчислить	Тасвирдаги ранглар каналларни ўчириш.
Размер изображения	Тасвир шаклини ва ўлчамларини ўзгартириш.
Размер холста	Тасвир рамкаси ўлчамларини ўзгартириш.
Обрезание	Белгиланган майдондаги тасвирни кесиб олиш.
Перевернуть холст	Холстни соат стрелкаси бўйлаб ёки соат стрелкасига қарши 180, 90 градусга буриш.
Гистрограмма	Тасвирдаги ранглар миқдори шақидаги маълумотлар дарчаси.

Слой менюси таркибидаги қўшимча буйруқлар

Новые	Янги қатламни ташкил қилиш.
Дубликат слоя	қатлам нусхасини хосил қилиш.
Удалить слой	Мавжуд қатламни муваққат хотирадан ўчириш.
Эффекты	қатламга турли эффектларни қўйиш.
Группа с предыдущим (Ctrl+G)	Бир нечта қатламларни группалаш.
Разгруппировать(Shift+Ctrl+G)	Группаланган қатламларни бир-биридан ажратиш
Склеить все слои	Барча қатламларни бирлаштириш.

ВЫДЕЛИТЬ менюси куйидаги буйруқлардан иборат :

Все (Ctrl+A)	Тасвирни бутунлай белгилаш.
Убрать выделение (Ctrl+D)	Тасвирнинг белгиланган қисмини олиб ташлаш.
Выделить заново (Shift Ctrl D)	кайтадан белгилаш.
Обратно (Shift+Ctrl)	Сўнги бажарилган амалга қайтариш.
Цветовой ряд	Ранглар қатори. Тасвирдаги ранглар асосида белгилаш майдонини аниқлаш.
Модифицировать	Белгилаш чизигини пикселларда кенгайтириш.
Увеличить	Белгилаш майдонини кенгайтириш.
Преобразовать вўделение	Белгиланган майдон шаклини ўзгартириш
Сохранить вўделение	Белгиланган майдон шаклини хотирага жойлаштириш.

ВИД менюси куйидаги буйруқлардан иборат :

Новые вид	Янги дарчада очиш.
Увеличить (Ctrl++)	Тасвирнинг экрандаги кўринишини катталаштириш.
Уменьшить (Ctrl+-)	Тасвирнинг экрандаги кўринишини кучайтириш.
Показать весь экран	Тасвирини бутун экран кўринишида кўрсатиш.
Реальные размер	Тасвирини мавжуд ўлчамларидаги кўриниши.
Размер печатного оттиска	Тасвирнинг босма шаклдаги кўриниши.
Вўкл. линейки (Ctrl+R)	Чизгичларни олиб ташлаш.

ФИЛЬТРЫ менюси таркибидаги қўшимча буйруқлар билан қўлланманинг фиьтрлар билан ишлаш бобида танишингиз мумкин.

ПОМОЩЬ менюси таркибида Adobe Photoshop дастурига таъллуқли барча маълумотлар жойлашган. Бу меню таркибидаги буйруқлар ёрдамида Adobe Photoshop дастури дарчасидаги асбобларнинг қисқача қандай вазифани бажариши шақидаги маълумотларни ўқиш мумкин.

МАТНЛАР БИЛАН ИШЛАШ

Photoshop дастури тасвирлар устига матнларни киритиш учун яна бир кенг имкониятни очиб беради. Тасвир устига матн киритиш учун ойналар панелида махсус **Текст** ойнаси мавжуд. Бу ойна асосан тасвирга турли мантларни киритиш учун хизмат қилади. Текст ойнаси таркибида Текст маск, Вертикальнўй текст каби ойналар яширинган. Бу ойналар активлаштирилиб, курсор тасвир устида бир марта босилиши билан янги Тестовўй инструмент ойнаси хосил бўлади. Бу ойналар фақат матнлар тузиш учун хизмат қилади. Унинг ёрдамида мавжуд матнларни ташрир қилишнинг иложи йўқ.

Назорат саволлари

1. Adobe Photoshop дастурининг вазифаси нимадан иборат?
2. Adobe Photoshop дастур қандай ишга туширилади ва иши якунланади?
3. Adobe Photoshop дастур неча менюдан иборат ва уларнинг вазифаларини айтинг?
4. Adobe Photoshop дастурида қандай асбоблар панели мавжуд, уларнинг вазифаларини айтинг?
5. Матн билан ишлаш усулини кўрсатинг?
6. Ранглар билан ишлаш учун нечта ойна мавжуд, уларнинг вазифасини айтинг?
7. Мустақил равишда бирор бир расм устида амаллар бажаринг?

Ишни бажариш учун топшириқлар:

Adobe Photoshop дастурини ишга тушинг.

2. Adobe Photoshopда тайёр тасвир файлини очинг.

3.Файл устида қуйидаги амалларни бажаринг.

- Тасвир рангини ўзгартиринг;
- Тасвирни экрандаги кўринишини катталаштиринг;
- Тасвир ранги ёрқинлигини орттиринг;
- Тасвирга тасвирга мос текст киритинг;
- Тасвирнинг кераксиз қисмларини олиб ташланг.

4. Хосил бўлган тасвирга янги ном беринг.

5. Photoshop дастуридан ўзингиз учун визит карточкаси яратинг ва уни хотирада сақланг.

6. Adobe Photoshop дастури ишини якунланг.

Адабиётлар

7. Д. Миронов «Corel Draw 10». Учебный курс. Санкт-Петербург. 2002 год.
 8. А.Тайц «Adobe Illustrator-9». Учебный курс. Санкт-Петербург. 2002 год.
 9. Г.Панкратова «Photoshop 6». Учебный курс. Санкт-Петербург. 2002 год.
 10. А.Сатторов «Информатика ва ахборот технологиялари». Тошкент. «Ўқитувчи» нашриёти. 2003 йил.
- Corel Draw дастурининг маълумотлар базасидан фойдаланилди.

Лаборатория иши №4

Мавзу: Амалий дастур пакети CorelDraw ва унинг функциялари

Ишдан мақсад: Амалий дастур пакети CorelDraw ва унинг функцияларини ўрганиш.

Назарий қисм: Ўқувчиларга объект тушунчаси, объектлар устида ҳар хил ишларни бажаришни ўргатиш

Ўқувчилар қуйидагиларни ўзлаштирадilar:

6. «Объект» тушунчасини.
7. Объектлар билан ишлашни.

8. Объектларга ранг беришнинг ҳар хил усуллари.
9. Объект кўринишлари, экранда жойлаштириш режимларини.


1. Corel Draw дастурининг асосий технологик принципи - бу объектлар билан ишлаш. Объект деб-устида ҳар хил ишларни бажариш имконини берувчи тушунчага айтилади. Фойдаланувчи объектлар ишлаш жараёнида улар устида ҳар ишларни бажаришга тўғри келади.

Объектлар билан қуйидаги ишларни бажариш мумкин:

- А) Белгилаш
- Б) Учириш
- В) Нусха олиш ва нусхани қўйиш.
- Г) Бир нечта объектларни белгилаш.
- Д) Катталаштириш ва кичрайтириш.
- Е) Объектни силжитиш.
- Ж) Белгилашни олиб ташлаш.

Юқорида кўрсатиб ўтилган ишларни бажаришнинг бир нечта усуллари мавжуд. Биз фақат биттасида тўхталиб ўтамыз.

Объектларни яратиш учун экраннинг чап бурчагида жойлашган «қуроллар панели»дан фойдаланилади.



«қуроллар панели»

1-расм.

Хужжатга қўйилган объектни белгилаш учун шу объект устига сичқонча кўрсаткичи олиб борилиб чап тугмаси бир марта босилади. Натижада объект белгиланади. Яъни 1-расмда

кўрсатилганидек 8та маркерга олинади. Бу усул ёрдамида ихтиёрий объектларни белгилаш мумкин.

Шу жойда бир нарсани эслатиб ўтиш жоизки, керак бўлса бошқа дастурлардан ҳам объектларни қўйиш мумкин.


Белгиланган объектни ўчириш учун эса клавиатурада «Delete» тугмаси босилади. Натижада шу расм ўчади.

Белгиланган объектдан нусха олиш учун эса Edit-Сору амаллари бажарилади. Натижада шу объектдан нусха олинади.

Нусхасини қўйиш учун эса Edit-Paste амаллари бажарилади.

Ёки белгиланган объектдан бошқа усул ёрдамида ҳам нусха олиш мумкин, яъни Edit-Dublikate амаллари бажарилса кифоя.

Бир нечта объектларни бирлаштириш яъни группалаш учун, аввалам бор, бу объектлар белгиланади. Хамма объектларни белгилаш учун клавиатурада Shift тугмаси босиқ турилган холда объектлар бирма-бир белгиланиб чиқилади. (Юқоридаги кўрсатиб ўтилган усул ёрдамида).




2-расм.

Объект (объектларни) катталигини ўзгартириш учун бу объект (объектлар) белгиланади. Натижада 2-расмда кўрсатилганидек улар устида маркерлар хосил бўлади.

Маркер устига сичқонча кўрсаткичи олиб борилиб чап тугмаси босиқ турилган холда объектга керакли катталик берилади. Объектнинг керакли катталиги хосил қилиб бўлингандан сўнг сичқонча чап тугмаси қўйиб юборилади.

Бир нарсани айтиб ўтиш жоизки, белгиланган объектларни айлантериш ҳам мумкин. Бунинг учун белгиланган объектлар устига сичқонча кўрсаткичи олиб борилиб чап тугма бир марта босилади. Натижада 3-расмда кўрсатилган ҳолат вужудга келади.




3-расм.

Расмда кўриниб турилганидек Маркерлар бошқа кўринишни олади. Улар устига сичқонча кўрсаткичи олиб борилиб чап тугмаси босиқ турилган ҳолда объектларни хоҳлаган бурчакка буриш имконияти бўлади.

Белгилашни олиб ташлаш учун клавиатурада Ctrl тугмаси босилса кифоя.

Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, объект (объектлар) белгиланганда қўшимча қуроллар қатори пайдо бўлади. Бу қуроллар ёрдамида объектларни катталигини ўзгартириш, бошқа объектларга нисбатан жойлашиш ҳолатларини, бурчак кўринишларини ҳам ўрнатиш мумкин. (4-расм)




куро

4-расм.

2. Объектлар яратилгандан сўнг, чегараларга ва ички қисмига ранг бериш мумкин. Бу ишларни хар хил усуллар ёдамида бажариш мумкин.

Объектнинг чегарага ва ички қисмига ранг бериш учун Corel Draw ойнасининг ўнг қисмида жойлашган ранглр палитрасидан фойдаланиш мумкин.




Ран
глр
палитраси

6-расм.

Объект белгиланиб керакли ранг устига сичқонча кўрсаткичи олиб борилиб чап тугма бир марта босилади, натижада объектнинг ички қисми керакли рангни олади, ташқи чегарага ранг бериш учун эса юқоридаги ишлар бажарилади, фақатгина чап тугма ўрнига ўнг босилади.

Рангдан ташқари объектларга хар хил фонлар бериш мумкин. Бу тўғрисида хозир тўхталиб ўтамиз.

Бунинг учун Corel Draw ойнасида қўшимча ойнани хосил қилиш керак-Objekt Properties ойнасини. (бу ойнани қуйидагича хосил қилиш мумкин: Объект устига сичқонча кўрсаткичи олиб борилиб, ўнг тугмаси босилади, чикқан буйруқлар ичидан-Properties буйруғи танланади. (7-расм))



7-расм.



- Objekt Properties ойнасида мавжуд бўлган тугма, бу тугма ёрдамида объектлар ички қисмига фон бериш мумкин. Бу тугма босилгандан сўнг, қўшимча тугмалар хосил бўлади:



(Uniform fill)-объектларга бир хал ранг бериш имконини беради.



(Fountain fill)-объектларга икки турдаги ранглар, ва ранглар штриховкаларини беради.



(Pattern fill)-хал хил кўринишдаги тайёр фонларни танлаш имконини беради.



(Texture fill)- хал хил кўринишдаги тайёр фонларни танлиш имконини беради.



(Postscript fill)-тайёр фонларни танлаш имконини беради.



(No fill)-ички рангни йўқ қилади.


Corel Draw дастурида контур параметрларини бериш ва уларни бошқаришнинг ҳар хил усуллари бор. Ҳамда контур тушунчасига боғлиқ айрим тушунчалар мавжуд.

қалинлик-контур, яъни чегара (чегара чизиғи) қалилиги тушунилиб, унинг ўзгартиришнинг усулларини юқори пунктда гапириб ўтилган эди.

Кўриниш-контур кўриниши, яъни чизик типи тушунилади.

Ранг-чегара ранги тушунилади.

Наконечниклар-чизик (чегара) охириги нуқталар кўриниши тушунилади. Масалан:



7-расм.




-Чегара (чизик) қалинлигини, рангини, типини танлаш имконини беради.

Яъни бу буйруқ ичида Width-чизик қалинлигини, Color-чизик рангини, Style-чизик типини кўринишини танлаш имконини беради.

3. Объектларни жойлаштириш деганда, биз объектнинг ҳолатларини, экранда кўриниш режимларни ўрнатишни тушунаемиз. Шу тушунчаларнинг ишлашнинг бир қанча усуллари мавжуд бўлиб, биз фойдаланувчи кўп фойдаланиладиган усуллардан айримларини кўрсатиб ўтаемиз.

Объект ҳолатларини ўрнатиш учун объект (объектлар) белгиланиб, белгиланган объект устига сичқонча кўрсаткичи олиб борилиб ўнг ўнг тугма босилади. Натижада белгиланган объектга тегишли қўшимча буйруқлар чиқади. (8-расм)



8-расм.

Бу буйруқлар хаммаси алохида вазифа бажаради. Хаммасига тўхталиб ўтирмаймизда. Айримларига, яъни бизга керакли буйруқларда тўхталиб ўтамиз.

Group-белгиланган объектларни бирлаштиради, яъни битта объектга айлантиради. (Ungroup-бирлаштиришни бекор қилади)


Lock Objekt-белгиланган объектни қотириб қўяди, яъни бу объект устида ҳеч қандай ишларни бажариб бўлмайди.

(**UnLock Objekt**-қотиришни олиб ташлайди, яъни объект биз хоҳлаган ишни бажариш имконига бўламиз).

Order-объектнинг бошқа объектларга нисбатан жойлашишини белгилайди.

Объект ҳолатларини ўрнатиш жараёнида фойдаланувчи кўп ҳолларда Order бўлимидан фойдаланишга тўғри келади.

Order бўлими қуйидаги буйруқлардан иборат:



9-расм.

To Front-белгиланган объектни биринчи ўринга жойлаштиради.

To Back-белгиланган объектни охирига жойлаштиради.

Forward One-белгиланган объектни охиридан иккинчи ўринга жойлаштиради.

Back One-белгиланган объектни юқоридан иккинчи ўринга жойлаштиради.

In Front Off-белгиланган объектни керакли объектга нисбатан асосий ўринга жойлатиради.

Behind-белгиланган объектни керакли объектга нисбатан иккинчи ўринга нисбатан жойлаштиради.

Объектларнинг экранда кўриниш режимлари билан танишиб ўтамиз.

Corel Draw дасурида объектларни кўриш режимлари 5тадан иборат:

3. Simple Wireframe (қискартирилган каркас)

4. Wireframe (каркас)

5. Draft (эскиз)

6. Normal (нормал)

7. Enhanced (янгиланган).

Буларнинг хаммаси менюнинг View булимида жойлашган бўлади.

1 кўриш режимида объектларнинг ички ва ташқи ранглари, чизик қалинликлари умуман кўринмайди (оқ-қора тасвирда бўлади)

2 кўриш режимида ҳам 1 кўриниш режимидагидек бўлади, фақат бу ҳолатда объект чизик контурлари сақланиб қолади.


3 кўриниш режимида ички ранглар, яъни объектга берилган фонлар бир фонли фонларга айланадилар.

4 кўриш режимида объектнинг тўлиқ чизик ва фон ранглари акс эттирилади.

5 кўриниш режимида объектларнинг кўриниши икки баробар кучайтирилган режимда кўриниб туради.

Объект (саҳифани) кўриниш масштабини ўзгартириш учун экрандан фойдаланиш мумкин.
(10-расм)

(Бу ишларни клавиатурада ва сичқонча ёрдамида ҳам бажариш мумкин.)




10-расм.

Объектнинг кўриниш масштабини ўзгартириш учун асосан фойдаланувчилар Zoom (масштаб) панелидан фойдаланадилар.

Zoom панелини қуйдагича ҳосил қилиш мумкин:

Стандартная панельга сичқонча кўрсаткичи олиб борилиб ўнг тугмаси босилади, чиққан буйруқлар ичидан Zoom танланади.

Zoom панели қуйдаги тугмалардан иборат:



-масштаб.



-масштабни катталаштиради.



-масштабни кичрайтиради.



-белгиланган объектни катталаштиради.



-белгиланган объектни кичрайтиради.



-саҳифани бутунлайича кўрсатиш.



-саҳифани эни бўйича кўрсатиш.



-саҳифани бўйи бўйича кўрсатиш.

Объектларнинг саҳифада кўринишини ўзгартириш учун View Manager (Кўриниш диспетчери) ҳам фойдаланилади. Фақат унинг имкониятлари бошқачароқ.

Кўриниш диспетчери Tools-View Manager (Кўриниш диспетчери) амалларини бажариб экранда қўшимча ойна сифатида (ўнг бурчакда) чиқарилади. Бу кўриниш диспетчери фойдаланувчига объектларнинг маълум қисмларининг кўринишини эслаб қолиш имконини беради в у куйидаги бўлимлардан иборат.

Бу панел кўйидаги тугмалардан иборат:



-масштабни бир марта катталаштириш имконини беради.



-масштабни катталаштиради.



-масштабни кичрайтиради.



-белгиланган объектни катталаштиради.



-белгиланган объектни кичрайтиради.



-каттароқ.




-кичкинароқ.

4. Объектлар билан ишлашнинг биз юқорида оддий, оммабоп усулларини санаб ўтдик.

Шу ўринда яна бир нарсани айтиб ўтиш жоизки, Corel Draw дастурида бир қанча тушунчалар борки, уларни айтиб ўтмасдан бўлмайди.

1. Линейка-узунлик ўлчов бирлигида ифодаланган, ишчи муҳитдаги чизиқлар шаклидаги элементларга айтилади. Уларнинг ўлчов бирликлари узунлик ўлчов бирликлари каби бўлади. Лекин, улар узунлик ўлчов бирликларида мавжуд бўлмаган ўлчов бирликларга эга. Масалан: Дюйм (Inches)-2,54 см га тенг. Пики ва Пунктлар (Picas; points)-пункт 0,35 ммга тенг, пики эса 12 бирликка тенг. Пиксели (Pixels)-график расмнинг нуқтаси.

2. Координата сеткалари-маълум қадам берилган горизонтал ва вертикал чизиклар бирлашмаси. Координата сеткалари ишга тушириш учун View-Grid амалларини бажарса кифоя.



11-расм.


Сеткалар катталиги бериш учун қуйидаги бажариш керак:

3. Tools-Options амалларини бажариш керак.
4. Dokument-Grid амалларини бажаринг.
5. Чикқан мулоқотли ойнада Spasing (қадам)ни танланг. (frequency бўлими чизиклар сонини бериши имконини беради)
6. Horizontal ва Vertikal буйруқларда горизонтал ва вертикал бўйича чизиклар орасидаги масофани танланади ва Ок босилади.

3. Объектларни жойлаштириш, яъни объектларни шундай жойлаштиришки, уларнинг танланган нуқталари битта тўғри чизикда ётиши керак.

Бунинг учун қуйидаги ишлар бажарилади:

Arrange-Aling and Distribute-Aling ва чикқан мулоқотли ойнада жойлашиши ҳолати кўрсатилиб Ок босилади. (12-расм)



12-расм.

Объектлар устида эса яна мураккаброқ фақат Corel Draw дастурига хос ишларни бажариш мумкин. Бу ишларни бажариш жараёнида менюдан, клавиатурадан, сичкончадан, «куроллар панели»дан фойдаланиш мумкин. Фойдаланувчи ўзи танлайди қайси усулдан унга фойдаланиш қулай. Биз ҳам фақат айрим, оммабоп усуллари санаб кўрсатиб ўтамыз.

Corel Draw дастурида объектлар яратиш учун, юқорида айтиб ўтқанимиздек, ойнанинг ўнг қисмида жойлашган «куроллар панели» фойдаланилади. (1-расм)

«куроллар панели»да жойлашган куролларга ўтамыз. Чунки бу куроллар нафақат объект яратадилар, ёки объектга ички ва ташқи ранг берадилар, балки бу куролларнинг қушимча имкониятларидан фойдаланиб биз белгиланган объектлар устида ҳар хил бажариш имконига эга бўламиз.

Назорат саволлари

7. Объект деганда нимани тушунамиз?
8. «куроллар панели» (Property bar: Rectangle) ёрдамида қандай ишларни объектлар устида бажариш мумкин?
9. Объектларни яратишнинг қандай бошқа усуллари биласизлар?
10. Клавиатура ёрдамида қандай қилиб объектлардан нусха олиб, нусхани қўйиш мумкин?

11. қандай қилиб бошқа дастурлардан Corel Draw дастурига бошқа объектларни кўчириш мумкин?
12. Objekt Properties нимага керак?
13. Objekt Properties қандай тугмалардан иборат ва улар нима вазифани бажаради?
14. Объектларга ички ранг беришининг қандай усуллари мавжуд?
15. Объектларда чегарани ўзгартириш учун қандай усуллардан фойдаланиш мумкин?
16. Objekt Properties ойнани қандай усуллардан фойдаланиб экранга чиқариб қўйиш мумкин ва қандай олиб ташлаш мумкин?

Ишни бажариш учун топшириқлар:

4. Corel Draw дастурини ишга туширилади (Пуск-Программи). куйидаги ойна пайдо бўлади. (Юқоридаги 1-расм)


5. «куроллар панели»да  (Rectangle Tool) тугмаси танланади. Хужжатга тўртбурчак чизилади.

6. Ранглар палитрасида тўртбурчакка ички ва ички ранг берилади.

7.  (Interactive Blend Tool) тугмалар тўпламида  (Interactive Extrude Tool) тугмаси танланади.

8. Белгиланган объектнинг чап паст бурчагидаги маркер устига сичқонча кўрсаткичи олиб борилади. Тўртбурчакнинг чап бурчагини юқорига силжитамиз. Ва сичқончанинг чап тугмасини қўйи юборамиз.

Натижада Куб хосил бўлади.



Эслатма: Чизик кўриниши ва ранги, тўртбурчакнинг ички ранглари, фонларни, кубнинг кўринишини ва катталикларини фойдаланувчи ўз хоши бўйича ўзгартириши мумкин.

Адабиётлар:

11. Д. Миронов «Corel Draw 10». Учебный курс. Санкт-Петербург. 2002 год.
12. А.Тайц «Adobe Illustrator-9». Учебный курс. Санкт-Петербург. 2002 год.
13. Г.Панкратова «Photoshop 6». Учебный курс. Санкт-Петербург. 2002 год.
14. А.Сатторов «Информатика ва ахборот технологиялари». Тошкент. «Ўқитувчи» нашриёти. 2003 йил.
15. Corel Draw дастурининг маълумотлар базасидан фойдаланилди.